

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

S.BEGMATOV, M.MATYOQUBOV

O‘ZBEK AN‘ANAVIY CHOLG‘ULARI

*Madaniyat, san‘at kollejlari va
akademik litseylar uchun o‘quv qo‘llanma*

Toshkent
«Yangi nashr»
2008

85.315.3 (50‘)
B 45

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv, metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

M a s ’ u l m u h a r r i r :

ABDULLAYEV R. S. – san’atshunoslik fanlari doktori, professor.

T a q r i z c h i l a r :

QOSIMOV R. Q. – O‘zDK «An’anaviy ijrochilik» kafedrasini mudiri, professor v.b.

MATYOQUBOV B. J. – san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

Begmatov, S.

O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari: Madaniyat, san’at akademik litsey va kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma/ S.Begmatov, M.Matyoqubov. – T.: Yangi nashr, 2008. – 72 b.

I. Matyoqubov M.

BBK 85.315.3(50‘)ya722

Ushbu o‘quv qo‘llanma musiqa san’ati kollejlari va akademik litseylarning an’anaviy ijrochilik bo‘limi o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda o‘zbek an’anaviy cholg‘ulari va ularning tarixiy taraqqiyoti hamda hozirgi kundagi o‘rni, amaliyoti, ijrochilari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

ISBN 978-9943-330-13-9

© «Yangi nashr», 2008-y.

KIRISH

Musiqiy cholg'ular insoniyat ma'naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlari o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix davomida doimo musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor katta bo'lishi bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Zamonaviy jarayonda o'tmish an'analariga yangicha qarash, ilg'or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim, ya'ni insonlarni ruhiy hamda ma'naviy tarbiyasiga asos bo'la oladigan omil sifatida qaraladi. O'quv-ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bunga e'tibor berilishining sababi ham shunda ekanligi shubhasizdir. Qolaversa, ta'limda alohida-alohida standartlar tarzida ishlangan dasturlar asosida faoliyat olib borish yo'lga qo'yilmoqda. Natijada o'qitish mezonida qo'llanilayotgan adabiyotlar va mavjud barcha nashrlarni zamonaviy talab darajasidagi yangi qarashlar bilan boyitish, shaklan hamda mazmunan yaxlit bir o'quv adabiyoti ko'rinishiga keltirib takomillashtirish taqozo etilmoqda.

Taqdim etilayotgan mazkur o'quv qo'llanmasi ham ta'lim tizimining o'rta bosqichi bo'lmish akademik litsey va kollejlarda tarbiyalanayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangandir. Unda o'quvchilar uchun o'zbek xalq an'anaviy musiqiy cholg'ularining o'tmish davrlardan boshlab shakllanishi va rivoji, zamonaviy jarayondagi o'rni va qo'llanishi hamda takomillashish mezonlari xususida ma'lumotlar o'quv dasturida rejalashtirilgan tartib bilan bayon qilinadi.

Ma'lumki, musiqiy cholg'ular va ular bilan bog'liq namunalar xalq musiqa ijodiyotining ahamiyatga ega bo'lgan tarkibiy qismini tashkil etadi. Hozirgi davrgacha yuzaga kelib, amaliyotda o'z o'rnini egallagan va ijrochilik amaliyotining yuqori saviyaga ko'tarilib borayotganligi, umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega ekanligi ham bundan dalolat beradi. O'zbek xalq cholg'ularining har birini texnik jihatdan va tarannum darajasiga ko'ra ilg'or cholg'ular darajasiga kiritish mumkin. Ularning aksariyat namunalari boy ijroviy imkoniyatlari hamda mukammal darajada shakllanganligi bilan ajralib turadi.

Aynan chog'ular tarannumining rang-barangligi (yakka, qo'sh, ansambl va orkestr), ularning yuqori professionalizm darajasiga erishganligi hamda katta imkoniyatlarga ega ekanligini namoyon etadi.

O'zbek musiqashunosligida, oxirgi yuz yillik davomida milliy cholg'ularni o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy amaliy tadqiqotlar olib borilgan. O'tmishning buyuk allomalari risolalaridan tashqari, XX asrda nashr etilgan kitoblar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. A.Fitratning «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» (1924), V.Belyayevning «Музыкальные инструменты Узбекистана» (1933), F.Karomatovning «Узбекская инструментальная музыка» (1972) T.S.Vizgoning «Музыкальные инструменты Средней Азии» (1980) kabi kitoblari maxsus cholg'ushunoslikka bag'ishlangan. Bundan tashqari, bir qator ilmiy maqolalar, bir cholg'uning tarixi va ijrochiligiga asoslangan o'quv adabiyotlari nashr etilib, cholg'ushunoslikdagi ilmiy-tadqiqot va shu bilan birga ularni o'rganish va rivojida munosib o'rin egallab kelayotganligini qayd etib o'tish lozimdir¹.

Mazkur o'quv adabiyotini yaratishdan maqsad o'quvchilar uchun o'zbek xalq cholg'ulari haqida tegishli ma'lumotlarni to'plash hamda cholg'ularga bag'ishlab yaratilgan adabiyotlar haqida yaxlit ma'lumotlar jamlangan manbaga ega bo'lishdan iboratdir. Pirovardida, ushbu adabiyot o'quvchiga ilk tanishuv va davomiy faoliyatida yo'l boshchi bo'lsin. Shu bois, unda o'zbek xalq cholg'ularining tarixiy kelib chiqish jarayoni, shakl-tuzilish va ko'rinishi bilan bog'liq tomonlari, ijro uslublari va ularga tegishli janrlar hamda nufuzli ijrochilar haqida o'rta ta'lim tizim o'quv talabiga mos holda umumlashgan ma'lumotlar yoritilgan. Bu, albatta,

¹ Yuqoridagi adabiyotlar va maqolalar cholg'ularga tegishli mavzularni yoritish jarayonida hamda adabiyotlar ro'yxatida alohida-alohida keltiriladi.

ushbu fan o'qituvchilari uchun xalq an'anaviy cholg'ulari bo'yicha ko'zlangan ta'lim kursidan bilim berishni umumnazariy hamda amaliy idroklagan holda olib borishlari uchun yo'naltiruvchi manba sifatida xizmat qilishi mumkin. O'quvchilar esa an'anaviy cholg'ular haqida tarixiy, nazariy, amaliy manbalar xususida muayyan tushunchaga ega bo'ladilar.

I BOB.

O‘ZBEK XALQ MUSIQIY CHOLG‘ULARI

1-§. O‘zbekistonda musiqiy cholg‘ularning tarixiy taraqqiyoti

Ma‘lumki, musiqiy cholg‘ular xalqlarning moddiy hamda ma‘naviy boyligidir. Chunonchi, har bir xalq o‘z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an‘analarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma‘naviyatiga xos yaratilgan amaliy san‘at namunalari orqali ularga mos keluvchi cholg‘u asboblari egadirlar. O‘zbek musiqiy cholg‘ular olami bu xususda ma‘nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e‘tirof etib o‘tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma‘naviyati yuksak bo‘lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir.

Tarixdan ma‘lumki, o‘zbek xalq cholg‘ulari rang-barang tarzda, o‘ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg‘u asboblari shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. O‘tmish allomalari Al-Forobiy (IX asr) o‘zining «Katta musiqa kitobi»da, Safiuddin Urmaviy (XII asr) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog‘iy (XIV asr) «Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy» risolasida, Ahmadiy (XIV asr) «Sozlar munozarasi» asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr) «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy» risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr) «Musiqiy risola»sida, Amuliy (XVI asr) «musiqa risola»sida, Darvesh Ali Changiy (XVII asr) «Musiqiy risola»larida musiqiy cholg‘ularni o‘rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to‘xtalib, o‘z davrlarining musiqiy cholg‘ulari tasnifotini bayon etganlar. O‘tmishning zabardast shoirlari o‘z asarlarida musiqiy cholg‘ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ayniqsa, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz kerakli tarmoqlariga urg‘u berib o‘tganliklarini asarlaridan

bilib olish mumkin. XX asrga kelib Eyxgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg'ularni o'rganish xususida samarali ish olib borganlar.

Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg'u asboblarning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg'ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k. haqida) ma'lumotlar keltirilgan. Ularda, torli cholg'ulardan: borbad, ud, rud, qo'buz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, bulamon, surnay, nay, qo'shnay, karnay; urma cholg'ulardan: daf, doyra, nog'ora, safoil kabilar haqida turli darajadagi ma'lumotlar keltirilgan.

Al-Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayevlar o'z risolalarida cholg'u sozlariga katta e'tibor bilan yondoshib, ularni amaliyotdagi tutgan o'rni, ayrim falsafiy xususiyatlari hamda ma'lum darajada tasnifoti bilan yoritganlar.

Odatda, musiqiy cholg'ular ijrochilik amaliyotining turli yo'nalishlarida qo'llanilib kelingan. Avvalo eng sodda cholg'ular yaratilib, kundalik hayot tarzida keng foydalanilganligini qayd etish joizdir. Bunday cholg'ular har bir xalqning cholg'ular dunyosida mavjud, ayni paytda ham iste'molda bo'lib keladi. O'zbek xalq ijrochilik amaliyotida saqlanib, qo'llanib kelinayotgan cholg'ulardan chang, qo'biz, sibizg'i shular jumlasidandir. Bu cholg'ularni tayyorlash va ijro etish ham oddiyligi bilan ajralib turadi.

Davrlar o'tishi, jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'u sozlar ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib borgan. Tarixiy manba'larda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki torli, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari taqilganligi kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomillashishi bilan bog'liqdir. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega ekan, u xalq ma'naviy boyligi hamda mulki ekanligini e'tirof etish lozimdir.

XIX asr oxiri va XX asrning oʻzida oʻzbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib isteʼmolga kirdi. Ud va qonun sozlari qayta tiklanib, ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afgʻon rubobi hamda kurd sozlari ham oʻziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib oʻrin oldi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bilan bogʻliq holda bir qator chang, rubob, dutor, gʻijjak kabi xalq cholgʻularining oilaviy namunalari yaratildi. Pirovardida, zamonaviy jarayonga kelib musiqiy cholgʻularning turli yoʻnalishlarga mos, xilma-xil tarkiblari yuzaga keldi. Amaliyotda anʼanaviy, qayta ishlangan, takomillashgan, qayta tiklangan, yangi zamonaviy (hamda elektron) xillari keng qoʻllanilmoqda.

Qayd etish joizki, cholgʻular, cholgʻu musiqasi hamda ijrochiligi azal-azaldan bir-birini toʻldirib, rivojlanishiga va takomillashishiga zamin yaralib kelgan. Ijrochilik mezonining rivoji cholgʻular koʻlamini kengaytirish, imkoniyatlarini oshirish uchun xizmat qilgan. Oʻzbek anʼanaviy cholgʻularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy anʼanalari negizida qaror topgan. Kasbiy musiqaning ijodiyoti va uning rivoji aynan cholgʻular bilan chambarchas bogʻliqligini qayd etib oʻtish lozimdir. Chunonchi, mumtoz ijodiyot cholgʻularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularning rivojiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatib kelgan. Shu bois, cholgʻular va cholgʻu musiqasi anʼanalari oʻzining shakllanish davri, yaʼni qadim zamonlardan xalq musiqa madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Cholgʻushunoslik ilmi fanda «organologiya» deb yuritiladi va cholgʻu sozlarning shakllanishi, amaliyotda qoʻllanilishi hamda rivojlanish mezonlarini ilmiy asoslab beradi. Ushbu fanning rivojida bir qator Sharq va Gʻarb olimlari qatorida oʻzbek musiqashunos olimlari ham munosib tadqiqotlar olib borganlar. Qadimiy cholgʻular koʻproq tarixiy obidalar orqali kashf etilib, keyinchalik tarix, adabiyot va musiqiy risolalarda bayon etilgan.

Cholgʻularning ilk tasvirlari qadimgi odamlarning istiqomat joylari – gʻorlarda, qoya toshlarda oʻyib chizilgan, imoratlarning peshtoqlari, saroylarning devoriy suratlari, sopol idishlarga chizilgan suratlarda va terrakota haykalchalarida aksini topgan.

Oʻrta Osiyo va Oʻzbekiston hududlarida Afrosiyob, Dalvarzin tepa (Surxondaryo), Varaxsha (Buxoro), Ayritom, Zartepa, Qoʻy qirilgan va Qoʻzi qirilgan tepalar (Koʻhna Urganch), Panjikent²

² Qazilmalar va qazilmalardan topilgan ashyolar xususida T.S.Vizgoning «Музыкальные инструменты Средней Азии» исторические очерки. М., «Музыка» 1980 kitobida batafsil maʼlumot berilgan.

kabi qadimiy joylar qazilmalaridan topilgan chizma surat va haykalchalar shular jumlasidandir. Qadimiy suratlarda arfa, ud, naysimon hamda urma cholg'ular aks ettirilgan. Musiqiy cholg'u ijrochiligiga bo'lgan ehtiyojni aynan ushbu suratlardan ko'rish ham mumkin. Chunki suratlarda nafaqat yakka ijrochilar yoki cholg'u asbobining o'zi aks ettirilgan, balki, Ayritom qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalarda qadimgi Sug'd madaniyatiga xos ansambl, ya'ni bir qator musiqachilarning cholg'ularni dasta bo'lib ijro etayotganlarining aksi tushirilgan³.

Musiqiy cholg'ularning ta'rifi ya'ni shakl-tuzilishlari tarkibiy jihatlari, nomlari, ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar, asosan O'rta asrlardan boshlab badiiy adabiyot asarlari hamda musiqiy risolalarida yoritila boshlanadi. Demak, O'rta asrlarga kelib qadimdan shakllanib takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini topgan. Shu bilan birga nafaqat xalq, balki olimlarning e'tiborini ham qozongan. Bu jarayonni O.Matyoqubov «Maqomot» kitobida quyidagicha bayon etadi: «Cholg'ularga bunday atroflicha qiziqishlar zamirida musiqiy asboblari ijrochilik faoliyatini ob'ektiv aks ettirishdir, degan ilmiy tushuncha yotadi. Forobiy ta'biri bilan aytganda, cholg'u asboblarining shakllanishi, avvalo, amaliyotda yuzaga keladi. Ularning tembr-akustik xususiyatlari parda va tovushqatorlari bevosita ijro jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shundan so'nggina cholg'ular olimlar kuzatuvi va umumlashmalariga zamin bo'lishi mumkin»⁴.

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulloh al-Xorazmiy, Zaynullobiddin Husayniy, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iylar⁵ o'z risolalarida cholg'ular va ularning bir qator sifat va xususiyatlari xususida mufassal so'z yuritganlar. O'rta asr risolalarida cholg'ular takomillashishi hamda rivoji yo'lida qilingan o'zgarishlar, ijrochilik amaliyotida yaratilgan yangi sozlar va iste'moldan chiqqan cholg'ular tasnifotini ko'rish mumkin.

Musiqqa san'atining boy ma'naviy jihatlari badiiy adabiyot namoyandalari ham befarq qoldirmagan. Musiqqa sehri,

³ Yuqoridagi manba.

⁴ O.Matyoqubov «Maqomot» T., «Musiqqa» 2004-y., 272-b.

⁵ O'rta asr musiqashunoslarining risolalari xususida quyidagi adabiyotlarda ma'lumotlar yoritilgan: T.C.Вызго «Музыкальные инструменты Средней Азии», 1980; I.Rajabov «Maqomlar masalasiga doir», T., «Fan» 1963; «Музыкальное, театральное искусство и фольклор», T., «Fan» 1992; O.Matyoqubov «Maqomot» T., «Musiqqa» 2004; «Музыкальная эстетика стран Востока» М., 1967.

cholg'ulardan taralgan sirli ohanglar Sharq badiiy proza va mumtoz she'riyati, ya'ni badiiy adabiyotida o'ziga xos ifodasini topadi. Bular benazir cholg'u sozlar nomlanishi, o'z davrining mashhur ijodiyot namunalari, bastakor, sozanda va xonandalar ijodi, xalq musiqia ijodiyoti va an'alarida ko'rinadi.

O'rta asrlarda musiqiy jarayonga ko'proq ahamiyat bergan adabiyot namoyandalari Firdavsiy, Ro'dakiy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy va Navoiylardir.

Jumladan: Firdavsiy «Shohnoma»da yozadi:

Yig'ildi akobir, cholg'uchi, raqqos,
Podsho shodligidan sochar dur, olmos.

Chiqar avjiga nay, childirma sasi,
Chirillab aylanar qizlar galasi.

Ulug'lar sha'niga qadah paydar-pay,
Sahargacha tinmas tanbur, rubob, nay⁶.

Musiqiy iboralar A.Navoiy davriga kelib adabiy merosda mukammal ifodasini topa boshladi. Ayniqsa, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodiy faoliyatlari buni yaqqol namoyon etdi. Alisher Navoiyning «Badoye' ul-vasot» asaridan g'azal:

Ey, mug'anniy, chun nihon rozim bilursen – soz tuz,
Tortibon munglig' navo sozing bila, ovoz tuz.

Navha ohangi tuzub, og'oz qil mahzun surud,
Ul surud ichra hazin ko'nglumga maxfiy roz tuz.

Istasangkim, nag'mang ichra ko'p xaloyiq o'Imagay,
Ul ikavdin ko'p vale mendin tarona oz tuz.

Gar mening holim desang tuz barcha dostoni niyoz,
Dilbarimdin nag'masoz etsang surudi noz tuz.

Chun bu gulshanda nishiman qilg'ali qo'yimas hazon,
Gul firoqi savtin, ey, bulbul, qilib parvoz tuz.

⁶ A.Firdavsiy, «Shohnoma» T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984, 199-bet.

Bazm aro o'rtar Navoiyni nihon munglug' surud,
Ey, mug'anniy, chun nihon rozim bulursen – soz tuz⁷

Ulug' mutafakkir shoir bir g'azalning o'zida 14 ta musiqiy iborani keltiradi. Zero, g'azalning o'zi ham bastakorlik amaliga xosdir. Navoiyda bunday musiqiy iboralar juda ko'p uchrashini uning asarlaridan bilish mumkin.

XV-XVI asrga kelib miniatura san'ati rivojlana boshlaydi. Firdavsiy, Nizomiy, Amir Xusrav Dehlaviy kabi shoirlarning asarlariga chizilgan minniaturalarda o'z davrining mashhur cholg'ulari o'z aksini topgan⁸.

«Shoxnoma»ga chizilgan minniatura:



⁷ Alisher Navoiy «Badoye' ul-vasot» mukammal asarlar to'plami. Beshinchi tom, T., «Fan» 1990-y, 160–161-betlar.

⁸ Minniaturalar va ularning sharhi T.C.Вызго «Музыкальные инструменты Средней Азии». T., 1980, kitobida batafsil bayon etilgan.

XIX asrning II yarmiga kelib o‘zbek an’anaviy cholg‘ularini o‘rganishga alohida ahamiyat berila boshlanadi. O‘rta Osiyo madaniyatiga qiziqish G‘arb mamlakatlarida ortib boradi va uni o‘rganish maqsadida mutaxassislar kela boshlaydilar. Marko Polo, Vamberi, Ankomin, Leysek, Eyxgorn kabi sayohatchi etnograflar, tarixchilar, kopelmeysterlarning kundaliklarida zikr etilgan ma’lumotlar keyinchalik yirik-yirik maqolalar va kitob tarzida nashr yuzini ko‘radi. Eyxgornning o‘zi butun O‘rta Osiyoni aylanib chiqib, olamshumul muvaffaqiyatga erishadi. Ilk bor cholg‘ular kolleksiyasini yig‘adi va bir qator shaharlarda namoyish etadi⁹.

XX asrga kelib xalq ijrochilik amaliyotida ommalashgan cholg‘ularni o‘rganib tadqiq etishga e’tibor kuchaydi. Buni Abdurauf Fitrat¹⁰ o‘zining ijodida boshlab berib, qimmatli ma’lumotlarni bayon etadi. Shundan so‘ng musiqashunos olimlar cholg‘ushunoslik ilmining rivojida bir qator samarali tadqiqotlar olib boradilar. V.Belyayev¹¹, F.Karomatov¹², T.S.Vizgo, A.Malkeevalar shular jumlasidan bo‘lib, ular O‘rta Osiyo musiqa cholg‘ushunosligi sohasining rivojiga samarali hissa qo‘shdilar. Ularning tadqiqotlarida an’anaviy cholg‘ular musiqiy madaniyatning asoslaridan biri ekanligi va xalq ma’naviyatining go‘zal an‘analarini o‘zida mujassam etib kelayotganligi yoritilgan.

XX asrning 30–40-yillariga kelib cholg‘ularni takomillashtirish jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. Bu jarayon O‘zbekistonda kompozitorlik ijodiyotining jahon andozalariga mos rivoji bilan bog‘liq edi. Ijrochilik amaliyoti ham shunga moslashib, simfonik orkestr rusumi doirasida o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining iste‘molga kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Amaliyotda mavjud cholg‘ularni orkestr tarkibiga moslash ishlari negizida bir qator cholg‘ularning oilaviy namunalar yaratildi. Natijada, simfonik orkestrga muqobil xalq cholg‘ulari orkestri yaratildi. Orkestrning rang-barang ovozi tarannumini ta’minlash uchun rubobning – prima, alt, tenor; dutorning – prima, bas, kontrabas; g‘ijjakning – alt, qo‘biz bas, qo‘biz kontrabas; changning – bas, tenor, alt namunalar yaratildi. Ushbu cholg‘ular zamonaviy musiqa ijrochilik

⁹ A.Eyxgorn 1870–yilda O‘rta Osiyo xalqlarining musiqiy cholg‘ularini yig‘ib kolleksiya yaratgan. Eyxgornning musiqiy cholg‘ular kolleksiyasi Glinka nomidagi Davlat musiqa madaniyati muzeyida saqlanadi.

¹⁰ A.Fitrat «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi» M., 1926, T., 1993.

¹¹ В.Беляев «Музыкальные инструменты Узбекистана» М., 1933.

¹² Ф.Кароматов «Узбекская инструментальная музыка» Т., 1972.

jarayonida nafaqat orkestr, balki kamer va turli (duet, trio, kvartet, kvintet, oktet) cholg'ular tarkibidan tuzilgan guruhlarni tuzishga imkon yaratadi. Qolaversa, o'zbek musiqa san'atining umumbashariyat andozalariga xos tarzda rivoj topishida hamda dunyoga chiqishiga katta yo'l ochib beradi.

2- §. O'zbek musiqiy cholg'ulari va ularning turlari

O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruhga XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashgan, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg'ular kiradi.

An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doyra, nog'ora. Xalq ijodiyotida qo'llaniladigan sozlarga changqo'biz, sibizg'i, safoil kiradi.

Qayta ishlangan cholg'u asboblari¹³ —rubob, g'ijjak, dutor va chang sozlarining musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlar mezonlariga ko'ra qayta ishlangan namunalarini kiradi.

An'anaviy cholg'u ijrochiligi azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, ulardan turli ko'rinish va tarkiblar asosida foydalanish an'ana bo'lib kelgan. Avvalo an'anaviy cholg'ularning har biri yuqori professional darajadagi individuallik xususiyatiga ega. Xalq ijrochilik amaliyotida shunga mos ijro imkoniyatlari, sharoitlar va ijro uslublari yuzaga kelgan. Ko'p asrlik ijrochilik amaliyoti esa (xalq va an'anaviy) cholg'ularni guruh bo'lib ijro etilishini ham taqozo etgan. Shunga binoan cholg'ular sozandalar tomonidan bir-birlariga mos o'z turlari va ovoz imkoniyatlari doirasida guruhiy tarkiblar tuzilib amaliyotda qo'llanilib kelingan.

Karnay, surnay, nog'ora va doyra tarkibidagi damli va urma cholg'ular guruhi qadimdan ijro amaliyotida shakllanib, xalqimizning barcha ommaviy tadbirlarining faol ishtirokchisiga aylangan. An'anaviy cholg'u sozlar ansambllari esa o'z xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llanilgan. Ijroda keng ko'lamlil va

¹³ «Атлас музыкальных инструментов народов Средней Азии» kitobida har bir oilaviy cholg'ular alohida-alohida ko'rsatib berilgan.

katta ovoz imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida barcha cholg'ular yig'indisidan katta cholg'ular ansambli tashkil etilgan. Cholg'u musiqasi ijrochiligi va maqom ijrochilik amaliyotida esa kichik-kichik guruhlar bo'lib ijro etish ham an'anaga aylangan. Jumladan: har bir cholg'u doyra jo'rliigi bilan ijro etish; tanbur dutor bilan; tanbur, dutor doyra jo'rliigi bilan; tanbur, dutor, g'ijjak doyra jo'rligida ud, qonun doyra bilan birga va h.k.

Hozirgi davrga kelib o'zbek musiqa ijrochiligini uchta yirik yo'nalishga ajratish mumkin. Xalq folklor musiqa yo'nalishi, xalq mumtoz musiqa yo'nalishi va kompozitorlik musiqa ijodiyoti yo'nalishi. Xalq folklor yo'nalishida ommaviylik xususiyatiga ega bo'lgan, ovoz va texnik jihatlari mos bo'lgan cholg'ulardan ko'proq foydalaniladi. Masalan: rubob, nay, g'ijjak, chang va doyra cholg'u asboblari. Qayd etish joizki, xalq folklor musiqa ijrochiligida ijro sharoiti, joyi ham o'ziga xos bo'ladi. Shuning uchun cholg'ular ham tez moslasha oladigan va har qanday sharoitda ijro eta olish xususiyati taqozo etiladi.

Xalq mumtoz musiqa yo'nalishiga xos bo'lgan cholg'ular guruhleri ko'proq kamer xususiyat kasb etishlarini nazarda tutib, joy, sharoit va muhitga asoslanadi. To'liq ansambl tarkibi esa barcha cholg'ularni qamrab oladi, hattoki, g'ijjak, dutor, tanbur cholg'ularidan qo'sh holatda foydalanish katta imkoniyatlarni hosil qiladi. Bunda ansambl zabardast ovoz imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kompozitorlik ijodiyoti ijrochiligi yo'nalishi ham zamonaviy uslublar asosida bir qator cholg'ular guruhini o'z ichiga oladi. Musiqa ijodiyotidan o'rin olgan janrlar negizida cholg'ularning tarkibiy guruhleri tashkil etilib, ijro etiladi. Unga ko'ra cholg'u duetidan toki xalq cholg'u asboblari orkestrigacha bo'lgan cholg'u asboblar tarkibi tuzilgan va ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilib kelinadi. Qayd etish lozimki, orkestrning to'laqonli ovoz imkoniyatlariga ega bo'lish yo'lida Yevropa cholg'ularidan ham keng foydalaniladi.

Ijrochilik amaliyotida shakllangan barcha cholg'u asboblari o'z xususiyatlari doirasida uch turga bo'linadi. Torli, puflama va zarbli cholg'ular.

3- §. O'zbek milliy cholg'ularining tarkibiy tasnifi

Xalq cholg'u asboblarini tasniflash jarayoni ilm dunyosida ikkinchi muallim nomini olgan alloma Al-Forobiy tomonidan boshlab berilganligi bir qator tarixiy manbalarda zikr etilgan. Shundan so'ng bir qator musiqashunos olimlar risolalarida turli cholg'ularning

tavsifi berilib, o'z zamonalarining mashhur cholg'ulari bayon etildi. XX asrga kelib o'zbek xalq cholg'ulari xususida V.Belyayev, I.Akbarov va Yu. Kon, F.Karomatov kabi musiqashunos olimlar alohida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular cholg'ularni atroflicha o'rganib, alohida cholg'ular misolida tasniflab ham berdilar. O'tmish allomalarining tadqiqotlari, hozirgi zamon ilm-fan yutuqlari hamda cholg'ularning tabiiy shakllanib rivojlanish jarayoni deyarli bir-biriga mos ekanligini namoyon etadi. Shunga ko'ra o'zbek musiqiy cholg'ularini uch asosiy guruhga bo'lish mumkin.

Tasniflash jarayonida olimlar uch mezonga asoslanganliklarini e'tirof etib o'tish lozim. Birinchi asos – har bir cholg'uning sado chiqarish vositasi. Ya'ni, cholg'ularning tovush manbai. Ayrim cholg'ularda oddiy ip yoki sim bo'lsa, ba'zilarida teri yoki muayyan bir jism. Ba'zilarida esa havo vositasida ovoz tarannum etiladi. Ikkinchi asos – ijrochilik uslubi. Ya'ni, cholg'u asboblarini tarannumiga erishish mezonlari: dam, chertish, urish (zarb) va silash orqali.

Uchinchi asos – cholg'ularning funksiyasi. Ushbu holatda ko'proq cholg'ularning ijrochilikdagi muhiti va sharoiti nazarda tutilgan.

O'zbek an'anaviy xalq cholg'ulari tasnifotini ikki yirik olimlar V.Belyayev¹⁴ va F.Karomatovlar¹⁵ o'z ilmiy-tadqiqotlarida yoritib berganlar. Ushbu tadqiqotlar nashr etilib, o'quv jarayonida keng qo'llaniladi.

Tabiiy tuzilish va ijroviy imkoniyatlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari uch guruhga tasniflanadi. Birinchi guruh – torli cholg'ular; Ikkinchi guruh – puflama damli cholg'ular; Uchinchi guruh – urma-zarbli cholg'ular. Har bir guruh cholg'ulari ichki xususiyatlaridan kelib chiqib turlarga bo'linadi.

1. Torli cholg'ular, ijroviy imkoniyatlarini inobatga olib to'rt turga ajratiladi: a) torli chertma cholg'ular (barmoqlar yordamida chertib ijro etiladigan cholg'ular); b) torli plektorli (maxsus moslama yordamida ijro etiladigan) cholg'ular; v) torli-kamonli (kamon yordamida chalinadigan) cholg'ular; g) torli urma (maxsus cho'plar bilan ijro etiladigan) cholg'ular.

2. Puflama-damli cholg'ular tarkibiy va ijroviy xususiyatlari doirasida uch turga ajratiladi: a) naysimon (bevosita havoni puflash orqali ijro etiladigan) cholg'ular; b) tilsimon (ovoz manbai cholg'udan ajratilgan tildan hosil bo'ladigan) cholg'ular; d)

¹⁴ В.Беляев «Музыкальные инструменты Узбекистана», М., 1933.

¹⁵ Ф.Кароматов «Узбекская инструментальная музыка» Т., 1972.

munshtukli (maxsus naycha yoki naypachoqlar bilan ijro etiladigan) cholg'ular.

O'zbek cholg'ularining ijroviy va texnik imkoniyatlari ulkanligini e'tirof etish lozimdir. Ijrochilik amaliyoti o'zbek xalq cholg'ularining turli xalqlar musiqa namunalari bilan birga jahon klassik musiqiy namunalarini me'yorida ijro etish imkoniyatlari mavjudligini namoyon etgan. Bu esa cholg'ularning rang-barangligi, turlari xalq va professional ijrochilik amaliyotida o'zini namoyon etganligidan dalolat beradi.

II BOB. MUSIQIY CHOLG‘ULAR TASNIFI

1- §. Torli cholg‘ular va ularning tasnifi

Torli cholg‘ular qadim zamonlardan shakllanib, turli xalqlar amaliyotida o‘z ma’naviyati va an’anasi doirasida rivoj topib kelgan musiqiy asboblardan bir turi hisoblanadi. Torli cholg‘uning kelib chiqishi tarixiga aniq bir ma’lumot berish mushkul. O‘tmish manbalarida keltirilgan rivoyatlarga ko‘ra, birinchi kashf etilgan torli cholg‘uning nomi Barbat bo‘lgan va ilk bor buyuk yunon olimi Fisog‘urs (Pifagor) tomonidan ixtiro etilganligi qayd etiladi¹⁶. Darhaqiqat, ilk yasalgan (yaratilgan) cholg‘u har tomonlama sodda va oddiy bo‘lgan va keyinchalik rivojlangan. Bu haqda maqomshunos olim I.Rajabov yozadi: «Fisog‘ursdan so‘nggi davrlarda yashagan musiqachilar barbatni takomillashtiradilar va uning asosida 2-3-4 torli musiqa asboblari yasadilar. Barbatni esa, ko‘p manbalarda hamma torli asboblarning yuzaga kelishida asos bo‘lgan, deb ko‘rsatiladi»¹⁷. Barbat esa udsimon cholg‘u ekanligi va ud cholg‘usini yasashda Barbat asos bo‘lganligi ham ko‘p manbalarda bayon etilgan.

Inson tafakkuri torli cholg‘uni ixtiro etib, uni ma’lum darajada rivojlantirgandan so‘ng, uning umumbashariy rivoji har bir xalqning madaniyati, ma’naviyati va an’anasi asosida shakllanib rivoj topadi. Cholg‘ularni har bir xalqning o‘ziga xos va turli vositalar orqali ijro etiladigan namunalari yuzaga keladi.

«Oldiniga torli cholg‘ularning shakllari, – deb yozadi V.Belyayev, – yoysimon bo‘lgan. Ya’ni, yog‘ochli (taxtali) egma

¹⁶ Fisog‘urs – yunoncha ismi Pifagor. Eramizdan oldingi VI asrda yashab ijod etgan buyuk faylasuf alloma. Musiqiy cholg‘ular yaratilishiga bog‘liq rivoyatlar I.Rajabovning «Maqomlar masalasiga doir» kitobida, musiqada yettita tovush mujassamligi borasida A.Navoiyning «Lison ut-tayr» kitobidagi «Qaqnus» hikoyasida keltiriladi.

¹⁷ I.Rajabov, «Maqomlar masalasiga doir». T., «Fan» 1963, 18-b.

tanali (korpusli) bo'lgan va unga bir va bir nechta torlar tortilgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu taxtali tana to'g'rilanib borgan va dasta yoki cholg'u asbobi dastasi shakliga kelgan. Shu bilan birga dastaga mos rezonator vazifasini bajaradigan kosaxonalar, avvaliga jonzodlardan (toshbaqa, zihri) yoki o'simlik mevalari (qovoq, kakos yong'og'i va h.k.) birlashtirilgan»¹⁸. Taraqqiyot jarayoni esa har bir xalqning o'z cholg'u asboblarini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Cholg'ularning kosaxonasi qaysi jihozdan va uning katta-kichiklik hajmi, dastasining uzun-qisqaligi hamda torlar soni va nisbati davrlar o'tishi bilan rivojlanib takomillashib borgan.

O'rta Osiyo xalqlarida bir qator tanbursimon, dutorsimon va qo'biz g'ijjak kabi cholg'ular yaratilib amaliyotda keng qo'llanila boshlangan. O'rta asrlarga kelib musiqiy cholg'ularning har biri shakli shamoyiliga, ovoz tarannum nufuziga va xalq orasida katta e'tiboriga ega bo'lgan.

Cholg'u sozlarning xalq orasidagi ommalashuvi o'z zamonasining faylasuflari, allomalari tadqiqotlarining manbaiga aylanishiga ham asos bo'lgan. Bu sohada tadqiqotlarning boshida IX asrda yashab ijod etgan qomusiy olim Abu Nasr al-Forobiy¹⁹ turadi.

«Musiqada cholg'u asboblari, tajribadagi amaliy izlanishlar natijasi va umumlashmasi degan qarashlardan kelib chiqqan holda Forobiy musulmon olamining mumtoz sozlari bo'lmish ud, tanbur, rubob, qonun, arganun (organ), nay, surnay va boshqalarning ilmiy tavsifini bergan... olimlar Kurd Zaks va Erix Xoribostellarning fikricha, asbobshunoslik (organologiya) faniga Forobiy asos solgan. Musiqahaqidagi katta kitobida musiqashunoslik tarixida birinchi bor cholg'u sozlarining ilmiy tasnifoti bayon etilgan»²⁰.

Forobiydan keyin musiqiy cholg'ular va cholg'u ijrochiligiga xos turli ma'lumotlar Ibn Sino «Javomi ilm al-musiqah» (X asr), Abu Abdulloh Xorazmiy (X asr), Abduqodir Marog'iy «Kitob ul-nag'am» (XIV asr), Zaynullobiddin Husayniy «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy» (XV asr), Abdurahmon Jomiy «Risolai musiqiy» (XV asr), Amuliy (XIV asr) «Risolai musiqiy» Darvesh Ali Changiy «Risolai musiqiy» (XVIII asr) kabi olimlarning musiqiy risolalarida o'z ifodasini topdi.

¹⁸ В.Беляев «Музыкальные инструменты Узбекистана», М., 1933.

¹⁹ Abu Nasr Forobiy 870–950-yillarda yashab ijod etgan qomusiy olim. «Musiqahaqida katta kitob»ning muallifi. Ilk bor musiqani ilmiy-nazariy tadqiq etgan. O'z davri cholg'u-sozlariga ta'rif bergan.

²⁰ O.Matyoqubov, «Maqomot». T., «Musiqah», 2004, 272-b.

Oʻrta asrlarda yashab ijod etgan ushbu olimlar oʻz risolalarida torli cholgʻularning qadimiy namunalari nuzxa, navxa, chang, qonun, rubob, ud, rud, tanbur, doʻmbira va dutor qoʻbuzlarning tavsifini zikr etganlar. XX asrda esa A.Fitrat oʻzining «Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi» risolasida oʻzbek xalq cholgʻularini tavsiflab beradi. V.Belyayev va F.Karomatlilar cholgʻularning tavsifi bilan birga xususiyatlariga koʻra tasnifotini bayon etadilar.

Musiqiy cholgʻularning rivoji avvalo ijro amaliyoti bilan bogʻliq. Cholgʻularning takomillashishi yoki aksi ularni ijrochilik mezonidagi oʻrni bilan xarakterlanadi. Shu bois, Oʻrta asrlarda yaratilgan risolalarda yoki badiiy adabiyot namunalarida oʻtmish sozanda va xonandalarining nomlari va amaliy ishlari ham oʻz ifodasini topgan. Jumladan: Darvesh Ali Changiy²¹ ushbu anʼanaga rioya qilib risolaning toʻrt bobini (VII, VIII, IX, X) oʻz zamonasining buyuk kishilari, musiqachilari, musiqa bilimdonlari va musiqani asrovchi, bastakorlari hamda mohir xonandalarining ijodiy faoliyatiga bagʻishlaydi. Har bir namoyanda haqida eng kerakli maʼlumotlarni keltiradi. Mashhur musiqachilar qatoriga Mavlono Miraki Changiy, Darvesh Ahmadi Qonuni, Shoh Quli Gʻijjakiy, Alijon Gʻijjaki, Ustod Zaytuni Gʻijjaki, Ustod Amir Qulixon Tanburi, Yusuf Mavdudi dutori, Hofiz Tanish, Hofizi Poyandan Qobuzi, Mavlono Qosim Qonuni, Ustod Sulton Muhammad Tanburi, Ustod Huseyn Udi kabi oʻz kasbining ustalari hamda ijroda mohirlikka erishgan allomalar haqida tegishli maʼlumotlar bayon etadi.

Zamonaviy jarayonda xonanda va sozandalikda mohirlikka erishgan namoyandalarning ijodi alohida oʻrganilib nashr etilishi ahamiyatlidir. Zero, sozanda va xonandalar ijodini yoritishga bagʻishlangan monografiyalarda ularning hayoti, ijodiy faoliyati, ustoz-shogirdlik sabogʻi, ijrochilik uslubi va maktabi, bastakorlik ijodi hamda ulardan namunalar keltirish anʼana boʻlgan. Ayni paytda benazir ustozlar, ijrochilik sanʼatining zabardast namoyandalari Hojixon Boltayev, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Hoji Abdulaziz Abdurasulov (Mahmud Ahmedov), Toʻxtasin Jalilov (Ikrom Akbarov), Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov (Ravshan Yunusov), Orifxon Xotamov (S.Begmatov) Turgʻun Alimatov (R.Qosimov), Muxtorjon Murtazoyev (S.Begmatov, A.Zokirov)lar ijodiga bagʻishlangan monografiyalar nashr etilgan.

²¹ Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII века). Перевод А.Семёнова. Т., 1946.

Mohir sozanda va xonandalar ijodini o'rganish zamonamizga munosib tarzda davom etayotganini e'tirof etish mumkin.

2- §. Torli chertim cholg'ulari

O'zbek xalq cholg'ulari orasida torli hamda chertib ijro etiladigan cholg'ularga do'mbira va dutor kiradi. Ushbu cholg'ular o'z ijrochiligi, tabiati, ovoz tarannumi bilan amaliyotda alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Shu bilan birga, xalq ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini va yo'nalishiga ega bo'lib, baxshi va sozandalar qo'lida, o'tmishdan so'zlovchi cholg'ular sifatida o'z mavqeini saqlab kelmoqda.



Do'mbira²² – torli o'zbek an'anaviy cholg'ularidan biri bo'lib, ayni paytda o'zbek baxshichilik san'atining yetakchi cholg'usi hisoblanadi. Cholg'uning ikki torliligi va turli tovushlarga sozlanib bir paytda ijro etilishidan, uni cholg'u ijrochiligining ancha shakllangan davrida yuzaga kelgan asbob, deb qayd etadi V.Belyayev.

Do'mbira, tanburga nisbatan kosasi katta, dastasi esa kalta, dutorga nisbatan dastasi kalta, kosasi kichkina ikki torli cholg'udir. Kosasining shakli ko'proq tanburga o'xshash bo'lib, asosan tut, yong'oq yoki o'rik daraxtidan o'yib yasaladi.

Uning qopqog'i tut daraxtidan yupqagina qilib yasalgan. Dastasi esa unchalik uzun bo'lmagan va maxsus pardalar ham bog'lanmagan. Cholg'uning ikkita tori bo'lib kvarta kichik oktava lya–re yoki lya bemol-re bemol yoki lya-mi yoki lya bemol-mi bemol; kvinta – lya-mi yoki lya bemol-mi bemol oralig'ida sozlanadi. Diapazon ikki oktavani qamrab oladi. Cholg'uning xarragi ham soz jussasiga mos qilib bag'ri qattiq tut yoki yong'oqdan yasaladi.

Do'mbirada ikki tor bir vaqtda chertilishi bilan birga alohida-alohida ham ijro etiladi. Bu ijrochi baxshilarning badihasiga bog'liq. Cholg'u alohida simlarda chertilganda har ikki toridan keng foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga chap qo'lni «psikato» usuli bilan ijro etish uslubi ham keng qo'llaniladi.

²² Do'mbira – xalqlar orasida dombra, do'mbra, dumbra, dumbrak nomlarida ham yuritilib kelingan. O'zbek baxshilari orasida do'mbira nomi ko'proq ommalashgan.

O'zbekistonda do'mbira Surxondaryo, Qashqardaryo, Samarqand vohalari baxshi-shoirlarining ijrochilik amaliyotida keng qo'llaniladi.



Dutor — o'zbek an'anaviy chertim cholg'u sozlaridan biri. Uzoq o'tmishdan xalq ijrochilik amaliyotidan munosib o'rin egallab kelayotgan dutor, ayni paytga kelib an'anaviy ijro uslubiga xos barcha guruhlar tarkibidan joy oldi. An'anaviy yakkanavoz cholg'u sifatida shakllandi va yetakchi cholg'ular qatoriga kirdi.

Dutorning tarixiy shakllanishi va boshqa cholg'ular bilan uyg'unlik jihatlari uzoq o'tmishga borib taqalsada, musiqiy risolalarda XV asrdan boshlab ta'riflanib keladi. «Forobiy ma'lumotlariga qaraganda, Xuroson tanburi o'zining ko'plab belgilari bilan zamonaviy dutorni eslatadi»²³. Lekin, dutorning o'z nomi va uning barcha (shakliy, tarkibiy, ijroviy)

imkoniyatlari bilan ilk bor XV asrda yashab ijod etgan musiqashunos olim Zaynullobiddin al-Husayniy o'zining musiqa ilmiga bag'ishlangan «Qonuni ilm va amali musiqiy» nomli risolasida bayon etgan. Darhaqiqat, unda ikkita torli va ularning oralig'i kvarta intervalini tashkil etuvchi, dastasiga bog'langan pardalari o'n bitta bo'lgan dutor cholg'u asbobi ta'riflanadi. Lekin, qayd etish joizki, risolada tavsiflangan cholg'u har tomonlama zamonaviy dutor soziga yaqin. Farq faqat, shaklda deyish mumkin. Chunki tavsiflangan dutorning kosaxonasi hozirgi zamon dutoridan oz bo'lsada kattaroq, dastasi esa qisqaroqdir. Davrlar osha cholg'ular o'zgarish yoki mukammallashish jarayonini o'tashi muqarrardir.

Dutor O'rta Osiyoning o'zbek, turkman, tojik, qoraqalpoq xalqlari orasida keng ommalashgan cholg'udir. Qayd etish joizki, har bir xalq dutorining oz bo'lsada, o'ziga xoslik jihatlari mavjuddir.

Dutor — ikki torli cholg'u asbobidir. Odatga ko'ra, tut daraxtidan tayyorlanadi. Cholg'u ikki asosiy qismlarga bo'linadi: a) kosaxona (rezonator); b) dasta. Cholg'uning kosasi 10–12 ta yupqa

²³ O.Matyoqubov, «Maqomot», 2004, 277-b.

qovurgʻachalarni bir-biriga birlashtirib yopishtirish orqali hosil qilinadi va uning ustki qismi maxsus qopqoq bilan qoplanadi. Cholgʻuning kosasida torlar ilinadigan maxsus moslama, yaʼni ilgichlar oʻrnatiladi. Dutorning dastasi cholgʻu jussasiga qarab belgilanadi. Unda 14–15 ta pardalar mavjud boʻlib, ular ichak, zamonaviy jarayonda jilka (sunʼiy ip)dan boylanadi va torlari ipakdan eshilib tayyorlanadi. Anʼanaviy dutor pardalari diatonik tovushqator tarkibida joylashgan. Dastaning boshlanish qismida esa, ikkita maxsus quloqlar joylashgan. Quloqlar iplarni tortish va cholgʻuni sozlash uchun qoʻllaniladi. Cholgʻuda ovoz taran- numining sof holda taralishi uchun ikkita xarrak oʻrnatiladi. Cholgʻuning yuqori qismida joylashgan xarrak shayton xarrak deyiladi va birinchi parda bilan quloqlar mobaynida joylashadi. Pastki xarrak maxsus shaklda yasaladi va cholgʻuning sozlanishiga koʻra qopqoq ustiga oʻrnatiladi.

Dutor oʻzbek xalq cholgʻulari orasida oʻzgaruvchan xususiyatli cholgʻular tarkibiga kiradi. Shu bois, bu toifadagi cholgʻularning sozlari (torlari) ijro uchun kerakli parda (tovush)ga sozlanib olinadi. Dutor ijrochilik amaliyotida ijro etilayotgan asarga qarab turlicha, yaʼni kvarta, kvinta, qoʻshtor (unison), oktava va sekunda intervaliga sozlanadi.



Ijrochilik amaliyotida, anʼanaviy ijro uslubida kvinta sozi keng qoʻllaniladi. Kvarta-Tanovor sozi, unison-qoʻshtor, oktava-Bayot sozi nomlari bilan ham yuritiladi.

Sekunda va tersiya intervali asosida sozlash zamonaviy jarayonda juda kam qoʻllaniladi.

Dutor cholgʻuning ijroviy diapozoni quyidagicha:



Dutor anʼanaviy cholgʻular orasida turli va rang-barang zarblarga boy, nafis va nazokatli, falsafiy ovozga boy cholgʻu soz sifatida turli yoshdagi ijrochilar amaliyotida keng qoʻllanilib kelinadi.

O'zbekistonda dutorning xalq an'anaviy va hududiy ijrochilik uslublari mavjuddir. Hududiy uslublarga Farg'ona-Toshkent va Xorazm dutor ijrochilik maktablari kirib, har biri o'zining xususiyatlariga ega. Xorazmda esa maxsus dutor maqomlari ham shakllangan.

Ijrochilik amaliyotida mohirlik darajasiga erishgan xalq dutorchi sozandalaridavn Mahmud Yunusov, G'ulomjon Qo'chqorov, Faxriddin Sodiqov, Zokirjon Obijov, Orif Qosimov, Nurmuhammad Boltayev, Pahlavon Rasulov, Yusuf Jabborov, Turg'un Alimatov, Sayfiddin Yo'ldoshyev, Ismatilla Rahmatillayev, Abdurahmon Hamidov, Malika Ziyoyeva, Ahmadjon Abdurahmonov kabilar doimo xalqimiz e'zozida bo'lib kelganlar.

3- §. Torli plektorli cholg'ular



Ud²⁴ – an'anaviy cholg'ularning eng qadimiysidir. Ijrochilik amaliyotida mashhur bo'lgan ud turli xalqlarda mavjud bo'lgan. Ajam xalqlarida – ud, Xitoyda – pipa, Ovrupada – lyutiya, arablarda esa al-ud nomlari bilan atalib kelingan. Cholg'u arablar mamlakatida o'sadigan ud daraxtidan yasalgan. Daraxt xushbo'y hid taratuvchilik xususiyatiga ega bo'lgan.

Ud o'tmishdan ijrochilikda keng qo'llanilgan, O'rta asrlarda Forobiy, Urmaviy kabi olimlarning musiqashunoslik ilmiy-tadqiqotlari uchun asos vazifasini o'tagan. XVI-XVII asrlarga kelib ud cholg'usi o'rnini boshqa cholg'ular egallaganligi sababli amaliyotda kam uchragan.

O'zbekistonda ud cholg'u sozi XX asrning 70–80-yillarida ijrochilik amaliyotida qayta tiklandi. Cholg'ular ansambli qatoridan munosib o'rin topdi. Yakkanavoz cholg'u sifatida ham omma orasida keng tarqaldi. Cholg'uning O'zbekistonda qayta tiklanishda mohir sozanda Rifatilla Qosimovning xizmatlari e'tiborlidir.

²⁴ Ud sozi xususida: I.Rajabov. «Maqomlar masalasiga doir», T., 1963. 14–32-betlar va T.C.Вызго «Музыкальные инструменты Средней Азии» kitoblarida batafsil ma'lumotlar yoritilgan.

Ud cholgʻusining ulkan rezonatorli katta kosa va qisqa pardalar boylanmagan dastasi mavjud. Kosa, odatda, bir-biriga mutanosib holda yopishtirilgan 10–12 ga yaqin qovurgʻasimon taxtachalardan tayyorlanib yasaladi va ustki qismiga qopqoq yopishtiriladi. Qopqoqda ovozning harakatini taʼminlab beruvchi uchta teshiklar boʻlib, ular naqshlar bilan bezab yasaladi. Cholgʻuning xarragi ham qopqoqqa zich holatda yopishtirib qoʻyiladi.

Cholgʻu dastasi kosaga mahkam biriktirib qoʻyiladi. Uning boshlangʻich qismida quloqlar oʻrnatiladigan qismi mavjud. Unda 11 ta torni tortish uchun moʻljallangan quloqlar joylashgan (5 tasi oʻng va 6 tasi chap tomonida).

Ud sozi 5 juft va 1 ta toq torlardan iborat. Uning birinchi, ikkinchi, uchinchi va toʻrtinchi torlarining orasi kvarta intervaliga sozlanadi. Toʻrtinchi va beshinchi, beshinchi va oltinchi torlar orasi katta sekunda intervali, yaʼni 1 ton oraligʻida sozlangan. Zamonaviy oʻzbek ud cholgʻuchiligida esa, maqom kuylarini ijro etishda qulay boʻlishini inobatga olgan holda toʻrtinchi va beshinchi torlar oraligʻi sekundadan kvartaga oʻzgartirilgan. Ayni paytda ud cholgʻusi quyidagicha sozlanadi:



Ud sozining diapazoni 2 oktavani tashkil etadi:





Tanbur – musiqiy cholgʻular orasida qadimiysi va eng zabardasti hisoblanadi. Tarixiy manbalarda ham qadim zamonlardan xalqlar orasida tanbur, tamera nomli cholgʻular keng ommalashganligi xususida koʻp maʼlumotlar bayon etilgan. Forobiy, Ibn Sino, Darvish Ali Changiy, Fitrat risolalarida tanburning turli (tarixiy, shakliy, tarkibiy namunalari va ijrochilik) xususiyatlari ifodalangan.

Tanbur oʻtmishdan xalq ijrochilik amaliyotida keng qoʻllanilib kelinganligi sababli uning turlari ham boʻlgan. Oʻrta asrlarda kasbiy musiqaning shakllanishiga tanbur ham oʻzining hissasini qoʻshganligi munosabati bilan amaliyotda yetakchi sozlar


qatoriga kira boshlagan. Oʻzbek maqom sanʼatining shakllanishida ham tanbur asos va yetakchi cholgʻu sifatida eʼtirof etiladi.

«Sugʻd, keyinroq arab adabiyotida ruddan (barbat) keyin oʻz mohiyatiga koʻra, – deb yozadi musiqashunos A.Nazarov, – «Xuroson tanburi» ikkinchi oʻrinda turishi koʻrsatib oʻtilganki, uning eng keng tarqalgan «Buxorochocha» sozlanishi haqida Abu Nasr Forobiy yozgan edi... Forobiydan keyin Ibn Sino cholgʻu asboblari tasnifining yangi tizimini taklif etadiki, unda Buxoro musiqqa amaliyotida qoʻllanib kelingan cholgʻu asboblari: tanbur, barbat, rud, chang, organ va boshqalarga alohida oʻrin berilgan»²⁵.

Forobiy oʻzining «Musiqqa haqidagi katta kitobi»da tanbur cholgʻusining ikki turi mavjudligi, yaʼni Xuroson va Bagʻdod tanburlari haqida maʼlumotlar beradi. Tanbur Temuriylar davrining yetakchi cholgʻusi va hattoki mashhur sozanda Xoʻja Abdulqodir uning yana bir turi «nay tanbur», yaʼni kamon bilan ijro etiladigan namunasi mavjudligi xususida maʼlumot bayon etgan. Ayni paytda tanbur maqom ijrochiligining yetakchi sozi hisoblanadi.

Tanbur etimologik nuqtai nazardan ikki soʻzdan iborat boʻlib, tan – tana, yurak, dil va bur – (buridan soʻzidan) tirnovchi, yaʼni dilni tirnovchi degan maʼnoni anglatadi. Ijrochilik amaliyotida tanburning turli xillari (kichik tanbur, katta tanbur, hofiz tanbur

²⁵ A.Nazarov. «Musiqqa», // Buxoro – sharq durdonasi, Parij, 1997, 128-b.



Tanbur maxsus tirnoqsimon noxun bilan ijro etiladi.

Tanbur ijrochiligida mohirlikka erishgan sozandalardan ustoz san'atkorlar Ma'rufjon Toshpo'latov, Sulton tanbur, Risxi Rajabiy, Matyusuf Xarratov, Gabriel Mullaqandov, Abdumutal Abdullayev, Maxsudxo'ja Yunusov, Jo'rabek Saidaliyev, Turg'un Alimatovlarni faxr bilan tilga olish joizdir. Ayni paytda ularning an'alarini munosib davom ettirishda Toyir Qo'ziyev, Abror Zufarov, Asror Aslonov, Shuhrat Xolxo'jayev, Jamshid Isoqov kabi yoshlar munosib ijod etmoqdalar.



Rubob – o'zbek an'anaviy chertib chalinadigan cholg'u sozlaridan. Musiqa ijrochilik amaliyotida rubobning ikki turi mavjud – afg'on rubobi va qashqar rubobi. Afg'on rubobi ko'proq akademik ijrochilik amaliyotida qo'llaniladi. An'anaviy rubob esa Qashqar rubobi nomi bilan mashhur cholg'udir. XX asrning boshlarida g'ashqardan keltirilgan rubobning takomillashgan varianti sifatida ijro amaliyotida ommalashgan.

Tarixiy manbalarda rubobning turli nomlari keltirilganligi xususida

o'z ijodlari bilan munosib hissa qo'shgan mohir san'atkorlar qatoridan Abbos Bahromov, Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Adham Xudoyqulov, Qobul Usmonov, Qobul Oripov, Tohir Rajabiy, Husan Nabiyev, Shavkat Mirzayev, Rifatilla Qosimov, Shomahmud Shorahmetov kabi mohir rubobchi sozandalar munosib o'rin olgan.

Qonun – Markaziy va O'rta Osiyo xalqlari orasida keng ommalashgan musiqiy cholg'u bo'lib, o'zining jozibadorligi, o'ziga xos tabiati va ijrochilik an'analari bilan bir qator Sharq xalqlari musiqa madaniyatida alohida o'rin tutib kelgan.

O'tmish allomalarining manbalarida²⁷ zikr etilishicha, qonun cholg'usi ko'hna qadimiy cholg'ulardan bo'lmish «nuzha»ning o'rniga iste'molga kirib kelgan va o'zining qulay imkoniyatlari bilan xalqlar orasida keng ommalashgan. O'tmish davomida qonun takomillashib mukammal cholg'ular qatoridan joy olgan.


Qonun – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, tovushqator asosi bir torli tarkibda tuzilgan «Monoxord» asbobiga berilgan nomdan kelib chiqqan va X–XI asrlardan qo'llanila boshlagan. O'rta asrlar davrida qonun cholg'usining uzunchoq shakli, yoysimon nusxalari, to'rtburchak namunalari amaliyotda bo'lgan va o'ziga xos tarzda ommalashgan.

Qonun cholg'usining ilk namunasi oddiy shaklga ega bo'lsada, XX asrga kelib ovozlarni moslashtirish va sozlash tizimiga xos katta yangiliklar kiritilganligi ko'pchilikka ayondir. Ya'ni, qonun cholg'usining imkoniyatlarini kengaytirish, tortilgan torlarda bir nechta balandlikdagi tovushlarni chiqarish maqsadida maxsus moslama yaratilgan. Bu moslamani «Urb» (Urba) nomi bilan atash odatga kirgan.

Qonun cholg'usiga kiritilgan maxsus moslamalarning soni, ya'ni urblarning qatori, diatonik yoki milliy ladlarning o'ziga xosligiga qarab belgilangan. O'zbek musiqasining tovushqator tizimidan kelib chiqqan holda, ayni paytda qonun sozida 2 qatorli urblardan foydalaniladi.

Qonun XX asrga kelib muayyan shaklga ega bo'ldi. Uning shakli trapesiyasimon bo'lib, bizning yurtimizda yong'oq va tut daraxtlaridan yasaladi.

²⁷ A.Forobiy «Musiqa haqidagi katta kitobi», Abu Ali Ibn Sino «Ilmu iyqo», Abdurahmon Jomiy «Risolai musiqa», Abdurauf Fitrat «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi», T.C.Вызго «Музыкальные инструменты Средней Азии», Abdulla Al-Kurdiiy «Qonun sozini o'rganish yo'llari» va h.k.



Qonun maxsus moslamalar yordamida ijro etiladi. Ular amaliyotda, kastab – noxun, risha – mediator deb nomlanadi.

Qonunning pastki qismi tutdan yasilib, 4 mm qalinlikda bo‘ladi. Ustki qismi yong‘oqdan yasiladi va u ham 4 mm qalinlikka egadir.

Qonunning ovozi va ijrosining nafisligi uchun turli jismlardan foydalanilgan. Ya’ni, cholg‘u teri bilan qoplanib, unga xarraklar joylashtirilgan. Cholg‘udagi urblar, ya’ni parda ko‘targich moslamalari misdan yasiladi. Moslamaning qalinligi 3 mm dan oshmasligi va silliq bo‘lishi lozim va qonunning ustki qismiga mustahkam va qulay tarzda o‘rnatiladi. Qonunning quloqlari ham metallardan emas, balki mustahkam daraxtdan yasiladi. Bizning qonunlarning quloqlari o‘rik daraxtidan yasiladi. Shayton xarrak dekaning cheti, ya’ni quloqlarning yonida, quloqlar va maxsus moslamaning o‘rtasida joylashgan. Shayton xarrak ham o‘rik daraxtidan yasilib, qalinligi 1,5–1,7 sm bo‘ladi. Har bir simga maxsus teshikchalar o‘yilib, sim o‘tkaziladi. Ularning soni simlarga qarab belgilanadi (zamonaviy o‘zbek qonunida 78 ta sim mavjud).

Cholg‘uning xarragi ustki va ostki qismlarga bo‘linadi. Xarrakning ustki qismi yong‘oq daraxtidan nozikkina qilib uchburchak shaklida ishlanadi. Ularning yuqori qismida torlar uchun mo‘ljallangan va o‘lchangan maxsus chuqurchalar o‘yiladi. Xarrakning balandligi maxsus moslamalar balandligi bilan mutanosib bo‘lishi lozim. Xarrakning ostki qismi yog‘ochdan yasilib, baliq teriga va xarrak

tagiga oʻrnatiladi. Ularning soni 4 yoki 5 ta boʻladi. Ostki xarraklar ovozlarni chiroyli sozlash jarayonida maʼqul tomonga siljitib sozlanadi.

Odatda, qonunning har bir simi maxsus teshikchalardan oʻtkazilib, toʻpiqdan chiqarilib tugib qoʻyiladi. Qonun qutisining ichida, yaʼni rezonatorida hosil boʻladigan ovozlarni kuchaytirib tashqariga chiqarish uchun moʻljallangan teshikchalar oʻrnatilgan.

Qonun cholgʻusining simlari oʻziga xos, cholgʻuga mos holatda tanlangan. Qonun torlari ipakdan oʻrab toblash usulida tayyorlanadi. XX asrga kelib qonun torlari neylon va leskalarga almashtirilgan. Buning natijasida qonunning ovoz tarannumi, tembr jihatidan, balandligi jihatidan va serjiloligi hisobiga boyigan. Qonun cholgʻusining simlari torlarning balandligiga qarab hajmi oʻzgaradi. Quyida taqiladigan torlarning hajmlarini keltiramiz:

Re-mi-fa-sol kichik oktava torlari – 09 mm;

Lya-si-do-re-mi kichik va birinchi oktava –08 mm;

Fa-sol-lya-si-do birinchi oktava – 07 mm;

Re-mi-fa-sol-lya ikkinchi oktava – 06 mm;

Si-do-re-mi-fa ikkinchi va uchinchi oktava –05 mm qalinliklardagi torlar taqiladi.

Qonun cholgʻusini sozlashda sozandalar maʼlum qoidaga amal qilishlari lozim.

Qonun cholgʻusining Oʻzbekistonda qayta amaliyotga kirib kelishida mohir sozanda Abdurahmon Xoltojiyev samarali faoliyat koʻrsatdi. Avvaliga maqom ansambli tarkibiga olib kirib, ansambllarda ishtirokini targʻib etdi. Oʻquv dargohi, konservatoriyaning anʼanaviy ijrochilik kafedrasida avvaliga ikkinchi mutaxassislik, keyinchalik ixtisoslik darajasigacha chiqdi. Hozirda qonun cholgusi sinfi mavjud boʻlib, uni Abdurahmon Xoltojiyev boshqaradi. Ijrochilik amaliyotida uning shogirdlari Asqarali Akbarov, Qosimjon Mirzayev, Komiljon Shermatov, Sirojiddin Usmonov, Roza Haydarova, Ulugʻbek Xudoynazarov, Mirzohid Aʼzamov kabi sozandalar qonun cholgʻu ijrochiligini zamonaviy jarayonda munosib targʻib etmoqdalar.

4- §. Torli kamonli cholg'ular

O'zbek an'anaviy cholg'ulari orasida o'ziga xos 3 xil kamon yordamida ijro etiladigan cholg'ular mavjud. Qo'biz, g'ijjak va sato. Ular ijro uslubi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Qo'biz kamonli cholg'ularning eng qadimiysi hisoblanadi.

Qo'biz – o'zbek an'anaviy musiqa san'atining baxshichilik yo'nalishida keng ommalashgan cholg'ulardan biridir. O'tmish zamonlarda xalq orasida mashhur bo'lgan qo'biz zamonaviy jarayonga kelib nisbatan kam qo'llaniladi.


Qo'biz, azaldan kovushga yaqinroq shaklda o'yib, kosasi va dastasi bir butun holatda daraxtdan yasalgan. Unga ikki tor taqilgan. Torlar ham o'ziga xos bo'lib, otning dumidan tayyorlanib, kamon yordamida ijro etilgan. Cholg'uning tepa qismida 2 ta quloqlar o'rnatilgan. Uning xarragi esa, boshqa cholg'ular xarraklariga nisbatan uzunroq va kattaroq tayyorlanib o'rnatilgan. Chunki qo'bizning kosaxonasi ochiq holda qolgan. Unga maxsus qopqoq o'rnatilmaydi. Shuning hisobiga, torni ko'tarish uchun xarraklar uzun holda tayyorlaniladi.

Qo'biz torlari grifdan baland joylashgan. Shuning uchun ijroda sozandalar barmoqlarini torga salgina tekkizadi va «flojeletto» uslubida ijro etadilar. Cholg'uning diapozoni 1 – 1,5 oktavan oralig'ini tashkil etadi. V.Belyayevning ko'rsatmalariga ko'ra cholg'u diapozoni quyidagicha:



G'ijjak – o'zbek an'anaviy cholg'ularidan biri bo'lib, murakkab ijro uslubiga ega. O'tmish risolalarida g'ijjak xususida turli ma'lumotlar mavjud. O'zining rivojlanish jarayonida 2 torli va 3 torli hamda kosasining turli jihoz va daraxtdan yasalganligi bayon etiladi.

Zamonaviy g'ijjak tut, yong'oq, o'rik daraxtlaridan o'yilib yasaladi (Oldinlari kakos yong'og'i, qovoqdan yasalgan). Cholg'uning kosasi qalin teri yoki baliq pardasi bilan qoplaniladi. G'ijjakning dastasi unchalik uzun bo'lmagan, 38–40 sm (umumiy uzunligi 60 sm gacha) atrofida bo'ladi va pardalarga ajratib bog'lanmaydi. Shu bois bo'lsa kerak, o'tmishda juda kam sozandalar me'yoriga yetkazib ijro etganlar. Ko'p hollarda nomutanosib




cholg'u (V.Belyayev va A.Fitrat) hisoblanganining sababi ham shunda bo'lishi ehtimolgan xoli emas.


Cholg'u dastasining pastki (kosaga ulangan) joyidan metall qoziq (teri ostidan) o'rnatiladi. Uning cholg'uga nisbatan kosa ostidan davom etgan qismi, sozni tizzaga qo'yib ijro etish uchun moslanadi. G'ijjak kamon vositasida ijro etiladi.

G'ijjakning 4 tori mavjud bo'lib, ular xalq ijrochilik amaliyotida kvarta, kvinta, tersiya kabi intervallar oralig'iga asoslanib sozlangan. Hozirgi paytda g'ijjakning kvarta va kvinta sozlari keng omma-

lashgan:




G'ijjakning ijroviy imkoniyatlari katta va 3 oktavadan ortiq diapozonga egadir:



XX asrga kelib, O'zbekistonda g'ijjak ijrochiligining juda ommalashish va rivojlanish davri boshlandi. Bunga Andijon g'ijjak ijrochilik maktablarining mohirlik darajasiga erishganligi yorqin misol bo'ldi. Ijrochilik amaliyotida Mo'minjon Sobirov, Komiljon Jabborov, To'xtasin Jalilov, Nabijon Hasanov, G'anijon Toshmatov kabi yetuk sozandalar yetishib chiqib, elga mashhur bo'ldilar. Ular nafaqat ijrochilik, balki musiqa ijodiyotiga ham samarali hissa qo'shdilar. Zamonaviy musiqa san'ati amaliyotida bu o'ziga xos an'anaga aylanib bormoqda desak ham adashmaymiz. Chunki, zamonaviy jarayonda keksa ustalardan G'ulomjon Hojiqulov, Salohiddin To'xtasinov, yetuk san'atkorlardan Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Ziyovuddin Qosimov,

Tursunboy Jo'rayev, Ahmadjon Dadayev, Muhammadjon Marahimov, Salohiddin Azizboyev, O'tkir Qodirov, Murodjon Norqo'ziyev, Ulug'bek Hojiqulovlar ham g'ijjak ijrochiligi va musiqa ijodiyotida munosib faoliyat olib bormoqdalar. G'ijjak ijrochilik san'atining eng go'zal an'alarini davom ettirib, yosh avlodga munosib targ'ib etishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar.



Sato – qadimiy nay tanburning o'zi, ya'ni kamon bilan ijro etiladigan hozirgi tanburning namunasidir. Zamonaviy musiqa cholg'usi ustalari (xususan usta Usmon Zufarov) satoning yangi shaklini, ya'ni kosaxonasini ma'lum shaklga moslab va kattaroq holda yaratganlar. Sato kamon bilan ijro etiladi. Barcha tarkibiy va tuzilish jihatlari tanbur cholg'usini kidek.

Sato cholg'usida mohirlikka erishgan ustoz sozandalardan Ma'rufjon Toshpo'latov, Turg'un Alimatovlarni xalqimiz alohida e'zozlaydi. Zamonaviy jarayonda bu cholg'uga yoshlar tomonidan e'tibor ancha oshganligini biz Mahmudjon

Tojiboyev, Toyir Qo'ziyev, Abror Zufarov kabi sozandalarning benazir ijrolarida ko'rishimiz mumkin.

5- §. Torli urma cholg'ular

O'zbek an'anaviy cholg'ulari orasida urma xususiyat kasb etuvchi cholg'u chang hisoblanadi. Chang o'zining qadimiyligi, har bir xalqning o'ziga xos an'alariga moslanganligi va tabiatan ochiq ovoza egaligi bilan boshqa sozlar orasida alohida ajralib turadi. Chang tarixiy risolalarning ko'pchiligida o'ziga xos bayon etilgan. Bizning hozirgi changga o'xshash namunasi esa Darvish Ali Changiyning risolasida keltirilgan va u 14 bosqichli soz sifatida ta'riflaniladi.

Chang cholg'usi trapesiya shakliga ega bo'lib, yupqa qutidan iboratdir. Uning pastki va ustki qopqoqlari maxsus yog'ochlardan yasaliib, ichki tomonidan ikkita yog'och taxtachalar o'rnatilgan.



Torlarning mahkam tortilishini ta'minlash maqsadida cholg'uning o'ng tomoniga metall quloqchalar, chap tomoniga esa torlarning ikkinchi uchini ilib qo'yish uchun ilmoqchalar o'rnatiladi. Chang torlarini o'rnatishda maxsus xarraklarni terib, ustki tomoniga metall sim o'rnatiladi.

An'anaviy chang sozining 40 simli va diatorik tovushqator tarkibiga ega ekanligi haqida V. Belyayev o'z risolasida bayon etgan. Chang takomillashish jarayonida ko'p o'zgarishlarga uchragan. Takomillashishning asosiy maqsadi changning ovoz imkoniyatlarini oshirish va ijroviy diapozonini kengaytirishdan iborat bo'lgan. Qilingan ijodiy harakatlar davomida chang 70 torli (har bir tovush ikkilangan va uchlangan) va 38 tarzda joylashgan xromatik tovushqatorga ega bo'lgan. Changga maxsus o'ralgan 0,8-0,7-0,6-0,5-0,4 mm hajmli po'lat torlar tortiladi. Hattoki tovush so'ngdirgich ham o'rnatilgan (an'anaviy namunasida bu uskuna deyarli ishlatilmaydi) va akademik uslubda keng qo'llaniladi.

Zamonaviy jarayonda changchi sozandalar takomillashgan changdan foydalanadilar. Uning diapozoni 3 oktavani to'la qamrab oladi:

Pastki regist tovushlari

O'rta regist tovushlari

Baland regist tovushlari

QARI NAVO

O'zbek xalq kuyi

The musical score for "Qari Navo" is written in 2/4 time and consists of ten staves. The key signature has one flat (B-flat). The dynamics and articulations are as follows:

- Staff 1: *mf* (mezzo-forte) and *p* (piano)
- Staff 2: *p* (piano)
- Staff 3: *p* (piano)
- Staff 4: *f* (forte)
- Staff 5: *p* (piano)
- Staff 6: *p* (piano)
- Staff 7: *>p* (piano), *p* (piano), *f* (forte), *p* (piano)
- Staff 8: *f* (forte)
- Staff 9: *f* (forte)
- Staff 10: *f* (forte)

p

mf

p

mf



Qayd etish joizki, changning sozlanishida muayyan tartibga binoan sozlash lozimdir. Chang maxsus kalit yordamida sozlaniladi va maxsus g'orovdan, ya'ni pishgan bambukdan tayyorlangan cho'plar yordamida ijro etiladi. Cho'plar egiluvchan bo'lishi lozim va cho'plarning ustki (simga uriladigan joyiga) tomoniga maxsus rezina yoki fils kiygiziladi. Chang ijrosiga chap qo'l va o'ng qo'llarning cho'plar bilan harakati (simlarga urish) natijasida erishiladi.

Zamonaviy jarayonda chang ijrochiligi bilan mashhurlikka erishgan an'naviy changchilardan Usta Ro'zimat Isaboyev, Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarratov kabi ustoz san'atkorlar o'zbek chang ijrochilik an'anasini boshlab mohirlikni namoyon etganlar. Tilash Xo'jamberdiyev, Tuyg'un Otaboyev, Temur Mahmudov, Abdurahmon Xoltojiyev, Akbarali Asqarov kabi an'naviy chang cholg'usi ijrochilari, Ahmad Odilov, Rustam Ne'matov, Fazilat Shukurova, Anvar Lutfullayev kabi akademik ijro ustalari o'z faoliyatlari bilan chang ijrochilik san'atining yuksaklarga ko'tarilishida samarali mehnat qilmoqdalar.

III BOB.

PUFLAMA-DAMLI CHOLG‘ULAR TASNIFI

Qadimgi ajdodlarimiz inson ovozidan kuchliroq tovush beradigan, ochiq havoda chalinadigan cholg‘ularni ixtiro qilgan va uni ovda, harbiy yurishlarda, to‘y, sayil, bayram va boshqa turli yig‘inlarda qo‘llash odat tusiga kirgan.

Damli cholg‘ular eramizdan avvalgi III-I asrlarda ham naysimon, tilli va karnaysimonlarga tavsiflangan. Qadimgi Misr, Bobil va boshqa Sharq mamlakatlarida damli cholg‘ular haqida ma’lumot beruvchi tasviriy san’at asarlari mavjud bo‘lib, ular haykalchalar va arxeologik topilmalarda o‘z aksini topgan.

Qadimgi Misr tarixiy yodgorliklaridan ma’lumki, yuksak qadrlangan harbiy sozandalarga kohinlar qatoridan o‘rin ko‘rsatilgan, hatto jang maydonida sozandalar o‘ldirilmas, balki asir olinib, o‘z kasbi doirasida xizmat qilishga buyurilgan.

Qadimgi Xorazm hududidagi «Qo‘y qirilgan qal’a» (miloddan oldingi IV-III asr), «Tuproq qal’a» (I-III asr), «Qirq qiz qal’a» (V-VI asr) istehkomlaridan topilgan nay, mizmar, surnay, daf va nog‘oraga o‘xshash asl nomlari saqlanmagan cholg‘u sozlari ushlagan mutriba ayol va erkaklar tasvirlangan tangachalar, ganch haykalchalar hamda Ayritomdan topilgan haykalchalardagi cholg‘ular tasviridan biz ularning qaysi turga mansubligini aniqlashimiz mumkin. Ammo ularning o‘sha paytda qanday atalgani ma’lum emas. Ya’ni nomlari hozirgacha saqlanib qolmagan.

Samarqandning Urgut tumani Mo‘minobod qishlog‘idan topilgan suyakdan ishlangan besh teshikli miloddan besh ming yil oldingi nay qisman saqlangan bo‘lib, o‘sha davrda bunday tovush ko‘lamiga ega cholg‘uda qanday kuylar chalinganligini tasavvur qilish mumkin.

Eramizning V-VII asrlariga taalluqli Namanganning Pop tumanidan topilgan, qamishdan yasalgan qo‘shnay esa hozirgi qo‘shnaylardan deyarli farq qilmaydi.

Annikov laganidagi yetti karnaychi rasmiga qarab va bu tasvirdagi dramatik holatdan kelib chiqib, sozandalar tomonidan «Kinni Siyovush», ya'ni Siyovushning motamiga bag'ishlangan marsiya chalinayotganligi taxmin qilinadi. O'sha davrlarda karnay, nafir, shox nafir, bug', burg'u, tashdorlar sopol karnayi va boshqa cholg'ulardan foydalanilgan degan xulosaga kelish mumkin.

VII–X asrlarga kelib arablar istilosi bilan birga yangi an'analar taraqqiy topa boshlaydi. Sharq xalqlarida inson nafasi, ya'ni – dami ilohiy va shifobaxsh deb qaralgan. Bunday qarashlar islomdan oldingi otashparast, kohin va qom(shaman)larda ham bo'lgan. Bu haqda Qur'oni Karimning «Yosin» surasi 51-oyatida «Va nufixa fis-suri faziha min al-ajdasi ila robbihim yansilun», ma'nosi: «Qiyomat soati kelib farishta Isrofilning suri chalanishi bilan banogoh ular qabrlaridan parvardigorlari (huzuriga hisob-kitob uchun) sug'urilib chiqurlar», deyiladi. Bunda nufixa – puflanmoq, ma'nosida bo'lib, nafas, ya'ni puflash orqali o'liklar tirilishi aytilmoqda. Bu fikrni quvvatlagan holda Abdurahmon Jomiy:

Ma'ni samo' ki mikunad, fakih,
G'ofil az sur va nufihat fih.

Ma'nosi: ey fakih, sa'moni (musiqani) man qiluvchilar sur va unga puflanishidan g'ofildurlar, deb nafas orqali nag'ma – kuy hosil qilinib, u insonga jon bag'ishlashini g'ofil va johil bandalar bilmasliklarini yana bir bor ta'kidlaydi. Bu fikrlarni tilshunos olim Nafas Shodmonov «Tafakkur» jurnalidagi «Musiq – bu uyg'onish demak» maqolasida yanada rivojlantirgan.²⁸

Sharq uyg'onish davrining olimlari o'zlarining qomusiy asarlarida musiqani matematikaning bir bo'lagi deb hisoblaganlar va o'sha asarlarida o'z davrida iste'foda qilingan cholg'ular nomlarini ham keltirganlar. Shundaylardan al-Forobiy o'z risolalarida mizmar, mizomir nomli (bulamonga o'xshash) damli cholg'ular haqida axborot bergan bo'lsa, al-Xorazmiy o'zining «Mafatix al-ulum» asarida torli va urma cholg'ular bilan birgalikda surnay va bulamon sozlarini ham keltirib o'tgan.

Mahmud bin Ma'sud Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) ning «Durrat ut-toj li-g'urrat id-diyboj» («Shoh tojini bezovchi noyob

²⁸ N.Shodmonov «Musiq – bu uyg'onish demak», «Tafakkur», 1993, 3-son.

dur») qomusiy risolasida damli cholg'ular tovush hosil etilishi bo'yicha uch turga tasniflangan. Bular hushtaksimolar, tilli-dudikli va karnaylardir. Shuningdek, u cholg'ular pardalarini ijrochi og'zi tomoniga qarab ochilib borishi natijasida tovushning balandlashuvi va safillar (передувание)ga doir ma'lumotlarni ham keltirgan.

Darvish Ali Changiyning «Tuhfat us-surur» musiqiy risolasida aytilishicha, Nayi Eban cholg'usi XIII asrda yashab o'tgan musiqashunos olim Safiuddin Abdulmo'min al-Urmaviy tomonidan ixtiro qilingan. U temirchilarning dam beruvchi meshini ko'rib, mazkur cholg'uni yasagan ekan²⁹. Echki terisidan yasalgan meshning uch tomonidan uchta qamish naycha tiqib o'rnatilgan bo'lib, bir naychadan puflab havo to'ldiriladi. Ikkinchi naycha olti teshikli bo'lib, asosiy kuy chalinadigan. Uchinchi naycha faqat bir ohang (tovush) chiqaruvchi bo'lib, asosiy nayga jo'rnavor hisoblanadi. Nayi Eban Xorazmshohlar davrida to'y, sayil, harbiy yurish va boshqa marosimlarda chalingan. Jaloliddin Manguberdining harbiy yurishlari davrida u ko'pchilik xalqlar orasida tarqalgan bo'lib, Sharqiy Ovrupada volinka, ojarlarda chiboni, ozarbayjonlarda tulum, osetinlarda lalim, chuvashlarda sarnay va shunga o'xshash nomlar bilan atalgan. Mazkur soz hozirgi davrda Fransiya hukumati faxriy qorovullarining ramziy cholg'usi sifatida qo'llaniladi.

Bu davrda shaharlarning rivojlanishi turli hunarmandlar va kasb egalarining do'kon (do'kon – forscha – manzil, qo'nimgoh, uyushma)lari vujudga kelishi bilan mehtarlik (mehtar – forscha – boshliq, zobit, rahbar) qo'shlari, guruhlar paydo bo'ladi. Ularning tarkibi uch nafar (surnay karnay doira) dan to o'n besh nafargacha bo'lgan sozandani o'z safiga birlashtirgan. Mehtarlar ochiq havoda chalinadigan cholg'u ijrochilaridan tashkil topgan. Ularning vazifasi kuchli musiqiy tovush – sas, dabdaba va as'asa bilan dushmanga dahshat solish, lashkarlarga ruhiy madad berish, kuy chalib xalqni jang boshlanganidan, qo'shinning qaytib kelishidan, g'alaba tantanasidan, xonning chiqishidan va boshqa voqea hamda bayram, sayil va to'y tadbiridan ogoh etishdan iborat bo'lgan. Mehtarlar o'z cholg'ulari imkoniyatiga yarasha turli navbalar chalishgan va ular navbati murattab deb ham atalgan (navba – arabcha – kuylar turkumi, navbati bilan chalinadigan tartiblashtirilgan asarlar). Ayniqsa Xorazmshohlar davrida navbalar chalish an'anasi juda

²⁹ «Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али XVII века», проф. А.А.Семёнов. Т., 1946. 20-бет.

rasmiy tus olgan. Buning sababi Sultonmuhammad Olovuddin Xorazmshohning o‘zi ham ud cholg‘usida mashq qilish va shatranj o‘ynashni juda xush ko‘rar, udda navbalar chalib o‘zini sozlagandan keyingina arzxonaga chiqib fuqarolar arzini tinglar ekan. Shuning uchun ham o‘sha davrda musiqa san’ati bilan birgalikda mehtarlik ancha rivoj topgan.

Damli va zarbli cholg‘ularning harbiy yurishlardagi ahamiyatini barcha sarkarda va lashkarboshilar yaxshi bilganlar. Dushmanni faqat lovu-lashkar, nayza, qilich, yoy bilan emas, balki uning yuragiga qulog‘i orqali tovush-sas bilan dahshat va g‘ulg‘ula solish yo‘li bilan urushda g‘olib chiqishda karnay va nog‘oralarning o‘z o‘rni borligini tan olganlar.

Ammo inson hayotida harbiy yurishlardan ko‘ra to‘y, bayram va sayillar ko‘proq bo‘lgan, «Navro‘z», «Mehrjon», «Mina», «Qizil gul» kabi bayram va sayillardagi ommaviy teatrlashgan raqs o‘yinlarida ochiq havoda chalinadigan damli cholg‘ular ularga jo‘r bo‘lganligini, bunday marosimlarda xalqni yig‘ish, ularga xush kayfiyat bag‘ishlash, ruhini ko‘tarish kabi ezgu amallarni bajarishda qo‘l kelganligini e’tirof etish mumkin.

1- §. O‘rta asrlar va Temuriylar davridagi damli cholg‘ular

O‘rta asrlarga kelib dehqonchilikning rivojlanishi, shaharlarda bunyodkorlik ishlari Movaraunnahr va Xurosonda adabiyot hamda san’at rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ayniqsa, Amir Temur davridagi harbiy yurishlar natijasida turli mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar, olimlar, xonandayu sozandalar shahar madaniyatining o‘shiga katta hissa qo‘shdilar va sanoyi nafisa bilan qiziquvchi yoshlarga o‘z san’atlarini o‘rgatdilar.

Bu davrda «Nog‘oraxona» lar paydo bo‘la boshlaydi. Nog‘oraxona va u erdagi bosh nog‘orachining vazifasi kun chiqishi, tushlik va kun botish paytida kuylar chalish, keyinchalik kunning har soatiga mo‘ljallab ijod qilingan maqom, sho‘ba va ovozalarni ijro qilish, ayniqsa ro‘zayi ramozon oylarida ro‘zadorlarni saharlikka uyg‘otadigan kuylar chalish nog‘oraxonalarda amalga oshirilgan.

Amir Temur tomonidan otda chopish, kurash, nayzabozlik, qilichbozlik, yoyandozlik va boshqa harbiy o‘yin musoboqalari hamda ko‘pkarilarning har tomonlama taqdirlanishi harbiy musiqa, ayniqsa, ochiq havoda ijro qilinadigan damli va zarbli cholg‘ularning

ahamiyatini oshirdi. Mahoratli sozandalarning yetishib chiqishiga keng yo‘l ochib berdi. Bunday katta tantanalar Xirotda, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda «tarabxon», «tomoshagoh», «sayilgoh» kabi maydonlarda o‘tkazilgan. Tomosha yoki sayil boshlanishidan oldin surnay, karnay, tobil, nog‘oralardan tashkil topgan guruh ijrosida «Olomon yig‘ar», «Shodiyona», «Bahri tobil» va shularga o‘xshash aholini yig‘inga chorlovchi kuylar chalingan.

Mehtarlik guruhlari yanada rivojlanib ularning dasturlarida «Askariy», «Mehtariy», «Ilg‘oriy», «Sarbozcha», «Duchava», «Qashqarcha», «Sharqiya», «Usmoniya» va boshqa kuylar ijro qilingan.

«Amr qildimki, — deb yozadi Sohobqiron o‘z «Tuzuklar»ida, — qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini engsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar — faxrli xitob, tug‘ va nog‘ora berib, uni bahodir deb atasinlar».³⁰

Shunisi e‘tiborliki, Amir Temur lashkarida musiqa cholg‘ulari faqatgina ma‘naviy ramziyot hisoblanmasdan, balki ko‘proq hollarda asosan harbiy matonat, shijoat nishoni, jangchilarning tabaqa va martabalarini ko‘rsatuvchi harbiy daraja belgisini anglatgan. Bu borada «Tuzuklar»da shunday deyiladi: — «Amr qildimki, o‘n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nag‘ora berilsin. Amir ul umaroga bayroq va nag‘ora, tuman tug‘i va chortug‘ taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug‘ va karnay bersinlar. Yuzboshi va o‘nboshiga bittadan katta nag‘ora bersinlar. Aymoqlarning amirlariga bo‘lsa bittadan burg‘u taqdim etsinlar. To‘rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nag‘ora, chortug‘ va burg‘u bersinlar».³¹

Amir Temurning musiqa san‘atini yuqori darajada baholashi, cholg‘ulardan harbiy nishon, jasorat ramzi sifatida foydalanishi — jahon muhoraba san‘ati tarixida mislsiz voqeadir.

«Temur tuzuklari»da jangchilarni safarbar etish chog‘ida inson ovozidan, ayrim maxsus ohang tuzilmalardan keng foydalanilganligi haqida ma‘lumotlar keltiriladi: «Yana amr etdim, — deydi u, — sipohilar g‘anim lashkarlariga ko‘zlari tushishi hamono, baland ovozda «Ollohu Akbar» deb takbir aytsinlar va suron bilan(jangovar chaqiriq «urho-ur» solib) dushman cherigi ustiga bostirib borsinlar».³²

Amir Temur armiyasining harbiy orkestri — damli va zarbli cholg‘ularning xilma-xil turlaridan tashkil topgan. Ularning ko‘pchiligi

³⁰ «Temur tuzuklari». T., «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 2005, 97-b.

³¹ O‘sha manba. 100-bet.

³² O‘sha manba. 125-bet.

Turk hoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrlarida mashhur bo'lgan, Markaziy Osiyoda yaxshi tanish bo'lgan nog'ora turlari ko's, tabira, al-tabra, bir tomonli nog'ora, chindoul, doul-paz, katta nog'ora kabilardan foydalanilgan. O'rta asr miniatyuralaridagi tasvirlarga qaraganda, qo'sh nog'oralar sipohiy sozandalar tomonidan otning ustida, egarning ikki tarafiga joylanib chalingan. Katta ko's nog'ora esa aksariyat miniatyuralarda tuyaning o'rkachiga o'rnatilgan holda tasvirlangan. Dovul cholg'usi o'sha paytda duhul nomi bilan mashhur bo'lgan. Bir qal'ani zabt etish manzarasini tasvirlay turib, Ali Yazdiy yozadi: «Unda (ya'ni qal'ada) 300 erkak duhul va surnaylarni chalish bilan tamoman mashg'ul edi». Amir Temur orkestrida, shuningdek, musulmon Sharqida azaldan mashhur bo'lgan tabla va misdan yasalgan jaras (lappak-tarelka) urma cholg'ularidan keng foydalanilgan.

«Zafarnoma»da kovarga – kovarka cholg'usi juda ko'p joylarda tilga olinadi. Manbalarda keltirilishiga qaraganda, bu zarbli cholg'u bo'lsa kerak. «Lashkar hozir bo'lib, tartib berildi, kovarka va burg'u urib, yuzlandilar... («Zafarnoma», 148-b)». Ushbu cholg'u so'nggi asrlarga oid manbalarda deyarli qayd etilmaydi.

Sohibqiron harbiy orkestrining damli cholg'ular guruhi xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bunda misdan yasalgan karnay, tirsakli karnay, noyi-rumiy, noyi eban, surnay va qadimgi turkiy so'z «bug'u»dan olingan burg'u cholg'ulari mehtarlik guruhining orkestr tarkibiga kirgan.

Amir Temur qarorgohidagi mehtarlar guruhida burg'uchilar doimo hozir bo'lganlar. Ali Yazdiy keltirgan bir ma'lumotda aytiladiki, Qarshi shahrini qamal qilish chog'ida «Sohibqiron hazrat farmon berdilarki – burg'u cholsinlar, ki oqibat Qarshi aholisining ko'zlaridan uyqu qochib, nafir va burg'u tovushlaridan taxayyur dudi ularning boshlarig'a urdi ...» («Zafarnoma», 119-b). Qarshi zabt etilgandan so'ng Sohibqiron Darveshak burg'uchi ismli harbiy sozanda xizmatini alohida taqdirlaydi. Burg'u cholg'usi keyinchalik Bobur lashkarlarini musiqiy cholg'usi ramzi sifatida Hindiston madaniyatiga ham kirib keladi.

Qadimgi davrdan hozirgi kungacha mashhur bo'lgan surnaylar qatorida temuriylar mehtarligida yangi turkiy an'analar bilan bog'liq «Chabchig'» va «Shon» cholg'ulari ham keng qo'llaniladi. Xoja Abdulqodir Marog'iyning ma'lumotlariga qaraganda, chabchig' ko'pqamishli «musiqor» (Ovrupadagi Pan fleytasiga o'xshash) asbobining bir turi bo'lib, mohir sozandalar ularga yordamchi parda teshikchalarni qo'shishgan.

O'sha paytdagi harbiy musiqa turlarining mazmuni, ohang tizimi xususida manbalarda ma'lumotlar keltirilmagan. Ularning faqat nomlari va usul shakllarigina saqlanib qolgan. Masalan, Marog'iy o'z risolasida Samarqandda ijod qilgan «Zarbul fath» va «Davri Shohiy» usullarini keltiradi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, Temur va temuriylar davrida harbiy musiqa mustaqil janr sifatida uzil-kesil shakllangan, mehtarlar guruhi esa yangi cholg'ular bilan yanada boyigan.

2- §. Sharq xalqlari damli cholg'ulari

XVII asrga kelib taxt uchun feodal urushlar ikki daryo oralig'ida joylashgan mamlakat va xalqlar orasida tarqoqlikning kuchayishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida musiqa san'atiga bo'lgan e'tibor ham ancha susaydi. Markaziy Osiyo Buxoro, Xiva va Q'o'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Ushbu xonliklarda davlat tepasiga kelgan xon va amirlarning she'riyat va musiqa san'atiga bo'lgan e'tiboriga qarab sanoyi nafisa turlicha rivojlandi. Bunday rivojlanish ham mahalliy o'ziga xoslikni kasb etdi. Saroyda mehtarlar guruhlar qadimdan shakllangan o'z vazifalarini bajarib kelganlar va xalq ichidan chiqqan sozandalar, damli cholg'ular ustalari, dorbozlar, «Chodir xayol» – qo'g'irchoqbozlarga jo'r bo'lganlar, to'y, sayil va bayramlarda xizmat qilganlar.

3- §. Naysimon, tilsimon va munshtukli cholg'ular va ularning tasnifi


Qadimdan shu davrgacha xalq orasida quyidagi cholg'ular iste'foda qilingan:

G'ajir-nay, cho'pon-nay cholg'usi to'g'ri silindr shaklidagi ikki tomoni ochiq nay bo'lib, cho'l burgutining g'ovak suyagidan ishlanadi. Uzunligi 300 mm. Barmoq bilan bosib chalinadigan 4 ta teshikchadan iborat. Diatonik tovushqatorga ega. U cho'ponlar amaliyotida ko'proq qo'llaniladi va lirik tarzda kichik kuylar ijro qilishga qulay.

Ushbu nayning besh teshikligi ham mavjud bo'lib, u burgut qanotining gavdasiga yaqin joyidan yasaladi. Ushbu nayning bosh tomonidan tish bilan labning oralig'ida tepa jag'ga joylagan holda puflab chalinadi. U xushtaksimonlar oilasiga kiradi.

Ishvalak, ushbullak, loyxushtak – turli qush va jonzotlar shaklida sapoldan yasaladi va har xil bo‘yoqlar bilan bezatiladigan xushtaksimon cholg‘u. Uning xushtak hosil qiladigan bitta teshigi va barmoq bilan bosiladigan ikkinchi teshikchasi mavjud. Ishvalak asosan bolalar o‘yinchoq‘i sifatida qo‘llaniladi.

Sibiziq – (bizillovchi ma‘nosida) 150 mm, uzunlikdagi g‘arov qamishdan yasalgan cholg‘u. Uning bosh qismida tilcha kesib ochilgan, barmoq bilan bosiladigan uchta teshigi bor. Tovushqatori diatonik. Sibiziq cho‘ponlar cholg‘usi bo‘lib, unda sho‘x – o‘ynoqi kuylar chalinadi. Sibiziq turkmanlarning dilli-tuyduqiga o‘xshaydi.



Nay – silindr shaklida 400 – 600 mm uzunlikdagi yonlama cholg‘u bo‘lib, mevali yog‘ochdan (yog‘och – nay), bambukdan (g‘arov – nay), oq misdan (mis – nay), latundan (brinj – nay) yasaladi. Nayda barmoq bilan bosiladigan 6 ta asosiy teshik bo‘lib, ulardan tashqari puflash uchun teshik, yog‘och va g‘arov naylarda asosiy teshiklari orasida bitta hamda quyi qismida yana to‘rtta teshiklar mavjudki, bularning barchasi nay tovushiga chiroyli tus berish uchun ochilgan. Nayning tovushqatori diatonik bo‘lib, ikki yarim oktava (birinchi oktava *lya* dan to‘rtinchi oktava *re* gacha) tovush ko‘lamiga ega.

Ikkinchi oktava *lya* tovushidan yuqori pardalar nafas bosimini kuchaytirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Sozandalar ijro davomida va ayniqsa yuqori tovushlarni hosil qilganda murakkab (asosiy pardalarda o‘rta barmoqlarni ochgan holda «вилочный») applikatorani qo‘llaydilar. Nay teshiklarini yarim ochgan holda esa xromatik tovushqator hosil qilish mumkin. Shuningdek, nayning puflanadigan teshigiga ijrochi labini pastroq yoki yuqori qo‘yishi natijasida tovushni yarim pardaga farq qildirish mumkin.

Nayning yaralishiga doir bir rivoyatda aytilishicha: Inson paydo bo‘lgandan keyin yerda o‘sib turgan qamishni qirqib olib, undan teshiklar ochib, nay yasaydi va chala boshlaydi. Nayning ohangiga mahliyo bo‘lgan yer yuzidagi barcha jonzot tirikchilik tashvishini unutib (sher kiyik bilan, bo‘ri qo‘y bilan, tulki tovuq bilan va

h.k.), hech narsaga parvo qilmasdan ijrochining izidan ergashib ketaverishibdi. Buni kuzatib turgan Alloh Ta'lo yerdagi muvozanatning buzilganini ko'rib insonning qo'lidan nayni oladi va undagi mahliyo qiluvchi shirani so'rib chiqarib tashlaydi va nayni qaytarib beradi.

Nayning tovushqatori va registrlarining tasnifi quyidagicha:



Hozirgi nayning maftunkor ovozi o'sha shirasi so'rib olingandan keyingi huzuri bo'lsa, undan oldingisining ta'rifiga so'z o'z.




Eng ifodali dinamikadan qat'iy nazar, yorqin.

Keskin, xushtaksimon, asosan *f*, *ff* chalinadi.

Nay ustozlari Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov, Mahmudjon Muhammedov nomi elga doston bo'lgani va hozirda Halimjon Jo'rayev, Abdulahad Abdurashidov, Ahmadjon Sobirov, Tohir Qahhorov, Xurshid Oripov kabi naychi sozandalar bu cholg'uning sehrini me'yorida namoyon etayotganliklarini qayd etib o'tish joizdir.

Har bir ustoz nay ijrochiligi tarixida o'ziga xos uslub yaratgan. Ular amaliyotda shogirdlar uchun ibrat va dasturi amaldir. Ular orasida ustoz Mahmudjon Muhammedovning ijro uslubi o'quv mezonida ustozlar tomonidan e'tirof etilgandir. Shu bois bu uslubni qisqacha ta'riflab o'tamiz.

M.Muhammedov odatda yumshoq tabiatli, juda ozoda, o'tkir fikrlovchi, tabiatan nozik ta'b inson bo'lgan. Bu xislatlar uning ijro uslubida o'z ifodasini topgan. M.Muhammedovning ustozlik uslubining ham o'ziga xosligi shunda bo'lgan. Eng avvalo, cholg'uga mehr qo'yish, ikkinchidan, sadoqatli bo'lish, uchinchidan zarbli cholg'ularga bo'lgan hurmat va qadrlash va nihoyat asarga (merosga) qaldan ijodiy yondashish. Ushbu prinsiplar M.Muhammedov metodining asosini tashkil etadi.




Qo'shnay – g'arov qamishdan yasalgan 220–250 mm uzunlikdagi juft naylardan tashkil topgan cholg'u bo'lib, naylarining bosh tomoni yopiq va uchlaridan 5 sm uzunlikda tilchalar kesib ochilgan. Tilchalar ip bilan xomut qilib yuqoriga va pastga (sozlash uchun) suriladigan qilib bog'langan. Qo'shnayda barmoq bilan bosiladigan 7 (ba'zan 8) ta teshik ochilgan.

U ikki oktavaga yaqin, birinchi oktava *re* dan ikkinchi oktava *si* (uchinchi oktava *do* gacha) diatonik tovushqatorga ega bo'lib, ikkinchi oktava tovushlari asosan nafas bosimi (передувания) natijasida hosil etiladi. Lab boshqaruvi natijasida xromatik tovushqator chalish mumkin. Qo'shnay ikkita qamishni birlashtirib, orasiga ipdan popuk qo'yiladi. U yasalganda ikkala qamishi ham bir tubdan olinadi. Shundagina ular bir-biriga qoyim soz bo'ladi. Qo'shnayning tovushi kuchli, mungli ohangga ega. Asosan yakka, ansambl va o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida qo'llaniladi. Hozirgi davrda Xorazm, Toshkent va Farg'onada keng tarqalgan.

Qo'shnayning tovushqatori va registrlarining tasnifi quyidagicha:



Diapazoni va registrlarining tasnifi



Eng ifodali, turli dinamikada o'ziga xos koloritga ega.


O'zbek ijrochilik amaliyotida qo'shnay ijrochilari unchalik ko'p bo'lmagan. Lekin Ahmadjon Umrzoqov (Farg'ona vodiysi) va uning shogirdi Quronboy Boboxonov (Xorazm) kabi ustoz va mohir san'atkorlar xalq orasida nom chiqargan qo'shnaychilardir. Ayni paytda Yo'ldosh Tojiyev, Matrasul Matyoqubov, Saddin Saddinov, Mirzasharif Mirbaratov, Olim Xudoyberganov, Ikrom

Matanov kabi bir qator ijrochilar qo'shnay ijrochilik san'atini mohirona davom ettirib kelmoqdalar.



Balaban, bulomon — (forscha balobam, bolo — baland, bom — past, baland va past registrlarda birdek jaranglovchi diapazoni keng cholg'u ma'nosida) silindr shaklidagi quvurining uzunligi 300 mm bo'lib, karnaychasi ustki tomonidan qalinlashtirib mevali yog'ochdan yasalgan cholg'u. Bulomonning trosti, ya'ni dudiki - yakka tili g'arov naychani ustki tomonidan (qo'shnaynikiga o'xshab) kesib-tilib ochilgan. Bulomonda barmoq bilan bosiladigan 8 ta teshik mavjud. Shulardan bittasi asosiy teshiklarga qarama-qarshi, ya'ni orqa tomonda joylashgan. Tovushqatori diatonik bo'lib, lab boshqaruvi natijasida xromatik tovushqator hosil qilinadi. Tovush ko'lam

ikki oktavadan sal oshiq (kichik oktava *sol* dan ikkinchi oktava *sol* (*lya*) gacha). Uning tovush tembri bo'g'iqroq (bas) tusda bo'lib, asosan baxshilar ansambli tarkibida va ba'zan yakka holda ham qo'llaniladi. Dramatik va fojeaviy dostonlar musiqalari bulomon jo'rligisiz ijro etilmagan. O'rta asrlarda bulomon qo'shnayga o'xshab juftlangan, ya'ni qo'sh bulomon bo'lgan. XVIII—XIX asrlarga kelib baxshi kuylarining sur'ati jadallashishi natijasida bulomonda texnik mahoratni oshirish ehtiyoji tug'ilgan va yakka bulomon shaklida (baxshini ikki tomonida bittadan bulomonchi jo'r bo'lgan) qo'llanila boshlagan. Hozirgi davrda qo'sh bulomonning qadimiy nusxasini taniqli surnaychi Matrasul Matyoqubov kolleksiyasida uchratish mumkin. Bugungi kunda ham shimoliy O'zbekiston, asosan Xorazm va Qoraqalpog'istonda baxshilar ansambllarida keng iste'foda qilinadi.



Bulomonning tovushqatori va registrlarining tasnifi quyidagicha:



Diapazoni va registrlarining tasnifi



Beqaror, past
do'rillagan tovushda

Eng ifodali, past,
so'lim tovushli har *f* da chalinadi
xil dinamikada



Surnay – (forscha sur – to'y, bayram, nay – qamish, to'yda chalinadigan nay degan ma'noni bildiradi). Surnay cholg'usining kelib chiqishi juda qadimiy bo'lib, bu haqdagi ma'lumotlar miloddan oldingi qal'alar devorlaridagi tasvirlar va O'rta asr miniaturalarida aks etgan. Surnay harbiy yurishlar, to'y, sayil va bayramlarda asosiy cholg'u sifatida karnay, nog'ora va doyralar ishtirokidagi cholg'ular ansamblida qo'llanilgan.

O'zining tuzilishi va tovush hosil qilinishi jihatidan goboyga ibtido bo'lgan surnay tanasi 400–450 mm uzunlikdagi mevali (o'rik, tut, yog'oq) yog'ochdan silindr, ba'zan konussimon shaklda, karnaychasi kengaytirilgan holda yasaladi. Uning barmoq bilan bosiladigan 8 ta teshigi bor. Shulardan bittasi

asosiy teshiklarga qarama-qarshi, ya'ni orqa tomonida joylashgan. Ba'zilarida teshiklarining oralari mis halqachalar bilan halqalangan. Surnay tili – dudiki oddiy qamishdan ip bilan qattiq bo'g'ilib, bir-biriga qapishtirib yasaladi va surnay mil-niliga kiygiziladi. Mil o'z navbatida cholg'u tanasiga o'rnatilgan bachka (bachcha- bolacha, surnay yog'och tanasiga nisbatan boshqacha mevali yog'ochdan ishlangan)ga kiygiziladi. Mil-nilda esa aylana yoki bukik ellips shaklidagi (hayvon shoxi, suyak, sadaf yoki metallardan ishlangan)

ijrochi labiga tiralib, nafasni tashqariga chiqishidan muhofazalab turadigan halqa oʻrnatiladi. Surnay bir yarim, ikki oktava hajmidagi diapazon va diatonik tovushqatorga ega. Oʻzbekistonda surnay turi ikki xil. Fargʻona-Toshkent surnayi menzurasida kengroq boʻlganligi sababli tovushi mayin va nolali, Xorazm surnayi esa menzurasida nisbatan torligidan tovushi keskin va chiyildoq. Ikkala surnayda ham tovush koʻlami bir xil. Pastki tovushi birinchi oktava *do-diyez* dan boshlanib, nafas bosimini kuchaytirish natijasida ikkinchi oktava *si* (uchinchi oktava *do*) tovushgacha boʻlgan diapazonni oʻz ichiga oladi.

Surnayning tovushi keskin va juda oʻtkir boʻlib, unda tovush hosil qilish murakkab hisoblanadi. Bu jarayon uzluksiz nafas bilan ijro qilish mahoratini talab etadi.

Uzluksiz nafas bilan chalishning mohiyati shundan iboratki, qadimgi ulamolar sozni vaqtning uzviy boʻlagi, yaʼni vaqtda uzilish boʻlmaganidek, musiqada ham qisqa boʻlsada, uzilish boʻlmashligi kerak deb hisoblashgan. Shuning uchun ham, ayniqsa, Xorazm surnaychiligida uzluksiz nafas bilan chalish qabul qilingan va hozirgacha davom etmoqda.

Shuningdek, Xorazm dutor cholgʻuchiligida ham uzluksiz rez (tremolo) bilan chalish bugungi kungacha oʻziga xos uslub hisoblanadi va ularning surnay ijrochiligi bilan uzluksizligi oʻxshashdir.

Uzluksiz nafas turi Oʻzbekiston surnaychilarida **qaytarma nafas** yoki Xorazmda **dam aylantirish** deyiladi va hozirgi davrda ham qoʻllaniladi. Bunda ijrochi lunjini shishirgan holda zaxira havoni lunjda saqlaydi va burundan nafas olayotgan paytida zaxiradagi havoni chakka mushaklari yordamida surnay naychasiga yoʻllaydi. Natijada ham oʻpkaga havo olinadi va surnayga yuborilayotgan nafasda ham uzilishga yoʻl qoʻyilmaydi. Qaytarma nafasni oʻrgatish uchun mashhur xorazmlik xon surnaychisi Xudak ota — Xudoybergan Qurbon oʻgʻli oʻz shogirdlarini qoʻllariga nay qamish berib dam aylantirish tamoyilini tushintirgach, boshlovchi surnaychini ariqcha chetiga yotqizgan holda naychani suvga tiqib puflatar va suvda pufakchalar hosil boʻlishi uzluksiz davom etsa, yaʼni nafas aylansa shogird surnayni qoʻliga olgan. Agar dam aylanishida uzilish roʻy bersa, suvda uzluksiz pufak chiqqunicha mashgʻulotni yana davom ettirgan.

Oʻzbekistonda ikki xil surnay ijrochiligi mavjud. Ular Fargʻona-Toshkent va Xorazm uslublari deb ataladi.

Farg‘ona-Toshkent ijrochilik yo‘nalishining vakillari to‘g‘risida G‘ulom Zafariyning 1930-yillarda tuzilgan shajarasida keltirilgan sozandalar nomlaridan bilamiz. Shuningdek, keksa sozanda va bastakor ustoz Muxtorjon Murtazoyevning aytishlariga qaraganda Andijonning Buloqboshi tumanidan talaygina taniqli surnaychilar sulolasi yetishib chiqqan. Bular: Rustam Mehtar, Odil Mehtar, Ashurali Mehtar, qo‘qonlik Ro‘zi naychi, Hamroqul bulomon, Ummatqul qo‘shnay, marg‘ilonlik Ahmadjon Umurzoqov, oq machitlik surnaychi Kalon Mehtar Bobo, Toshkentdan Shukurqul nay, Kamol nay, aka-uka surnaychilar Nurulla, Sa‘dulla, Xayrulla Ubaydullayevlar, Abduqayum ota Azimov, Mahkam Sobirov, Shamsimat ota Yusupov, G‘ulomjon Mirzayev, Namangandan Burhon nay, Hasan nay va boshqalar shular jumlasidandir.

Shuningdek, ushbu uslubning maxsus «Surnay yo‘llari»dan Buzruk, Savti Buzruk, Navo, Savti Navo, Navo Charxi, Dugoh, Dugoh Husayniy, Dugoh ufori, Segoh, Segoh ufori, Uzzol, Iroq, Ufori Iroq maqom sho‘balari asosida yaratilgan yirik turkumdagi asarlar ijro qilinadi.

Xorazmda surnay ijrochiligining rivojlangan davri Muhammadrahimxon Feruz xonlik qilgan (1863-1910) zamoniga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda aka-uka Hasan va Husan Kalot, Yoqub bulomonchi, Sariq Mehtar, Bobojon (Buva bulomonchi) surnaychi, Xudoybergan Qurbon o‘g‘li va 40 nafar surnaychidan tashkil topgan surnaychilar, karnay va nog‘oralar jo‘rligidagi ansambl «Xon chiqar» (Xorazm Navo maqomining saqili)ni xon chiqish paytida chalishgan. Bunda Xon otining va uni yetaklab yuradigan shotirlarning oyog‘iga turli hajmdagi zanglar taqilgan bo‘lib, ular kuy usuliga monand oyoqlarini tashlab yurgan paytda mahobatli tomosha – ko‘rinish hosil bo‘lgan.

Bu davrda mashhur bo‘lgan Durdi karnaychi nomi ham ko‘p tilga olinadi.

Xiva xonligida g‘assollardan olinadigan soliqni Ashur mahram karnaychilarga oylik, ya‘ni maosh qilib berar ekan. Shuning uchun ham ushbu kasb eng past hunarlardan hisoblangan va hozirgacha O‘zbekistonning boshqa joylariga qaraganda Xorazmda karnaychilar deyarli yo‘q, karnay esa juda kamdan-kam hollarda iste‘foda qilinadi.

XX asrda mashhur bo‘lgan surnaychilardan Xudoybergan Qurbon o‘g‘li, Matniyoz ota, Quryoz ota, Jumaniyoz ota, Abdusharif Tog‘anov, Matyoqub do‘xtir Ollayorov, O‘zbekistonda


xizmat ko'rsatgan artist Qodir Bobojonov, Fayzullo Matchonov, Yo'ldosh Tojiyev va ayniqsa O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, «Do'stlik» ordeni nishondori Matrasul Matyoqubovlar el orasida taniqli ustoz sozandalardan hisoblanadi.

Xorazmda ham maqom sho'balari asosida surnay uchun maxsus «Surnay maqomlari» yaratilgan va ular Komil Xorazmiy tomonidan ixtiro qilingan «Tanbur nota chizig'i»da o'z aksini topgan bo'lib, bular «Iforiy», «Zangboziy», «Zuvoniy», «Marviy I-II», «Gulho gulim», «Alaming yomon», «Yor-yor», «Qorako'z», «Puxtaro giyr» maqomlaridir.³³ Shuningdek, «Muhammasi Rost», «Muhammasi Ushshoq», «Saqli Navo» (bu asar xon chiqar deb ham yuritilgan), «Muhammasi Bayot», «Ufori Navo», «Peshravi Dugoh», «Peshrav zanjiri», «Hafifi Segoh», «Ufori Iroq», «Zuvoniy» kabi asarlar tanbur maqomlaridan bo'lsa, xalq kuylaridan «Aliqambar», «Nadromaddin», «Birollayim», masxaraboz yo'llaridan: «Qum pishigi», «To'rg'ay», «Chog'olloq», «Zumlaq», «Rotollo» va boshqa kuylar hozirgacha mashhur. Surnay yo'llarining asosan nikoh, sunnat va boshqa to'ylarda ijro etiladigan turlari keng tarqalgan. Ularning aksariyati raqs kuylari bo'lib, turkumli «Shodiyona», «Katta o'yin», «Tanovar», «Munojot», «Orazibon», «Norim-norim», «Ushlini uforisi», «Elapasalandi», «Birolloyim» (oxirgisiga o'xshagan qo'shiqlar ovozi kuchli xonandalar tomonidan surnay jo'rligida kuylangan va bunday jo'rlikda kuylash faqat Xorazmgagina xosdir) va ayniqsa «Surnay lazgisi» xalqaro miqyosda dong'i ketgan raqs kuylaridan hisoblanadi. Raqs kuylariga ko'pincha qayroq jo'rligida o'ynaladi.

Surnayning tovushqatori va registrlarining tasnifi quyidagicha:



Diapazoni va registrlarining tasnifi



³³ «Shashmaqom saboqlari». H.Aminov maqolasi. O'zDK Ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazi. T.,127–128-betlar.

Bug‘ – sopoldan ishlangan 350 mm uzunlikdagi quvur bo‘lib, undan qadimda tegirmon don yanchish uchun tayyor ekani yoki shahar hammomi suvi isib yuvinish uchun shay bo‘lganligini bildirish maqsadida tashdorlar tomonidan chaqiriq³⁴ chalingan.

Surnay ijrochiligi bilan elga tanilgan va rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan san’atkorlardan Quronboy Bobojonov, G‘ulomjon Mirzayev, Ahmadjon Hojiboyev, Ahmadjon Sobirov, Matrasul Matyoqubov, Yo‘ldosh Tojiyev, Saddin Saddinov, Shovkat Matyoqubov, Ikrom Matanov, Abduhomit Toshpo‘latov, Komil Mo‘minov kabi bir qator san’atkorlarning nomlarini keltirish mumkin.



Karnay – (forscha – qarn – shox, nay) hayvon shoxidan yasalgan nay degan ma’noni bildiradi. Ibtidoiy davrlardan har xil chaqiriq uchun odam ovozidan kuchli tovushga ehtiyoj paydo bo‘lgan va natijada hali inson tomonidan metall kashf qilinmasdan burun hayvonlarning katta shoxlaridan turli hajmdagi karnaylar yasashgan. Karnayning topilgan qoldiqlari eramizdan oldingi uch minginchi yillarga borib taqaladi. Karnay birinj – latundan yasaladi va uzunligi 3 metrcha keladigan to‘g‘ri, ba‘zan bukik, qungiroqsimon karnayli tabiiy oberton tovushqatorli cholg‘u hisoblanadi. Karnay asosiy quvurining ichidan 97–100 sm keladigan va tobora kengayib (5 mm dan 36 mm gacha) boradigan ingichka yordamchi quvur o‘tkazilgan. Bu quvur xalq tilida nil deb ataladi va u 37 mm keladigan karnay munshugiga ulanadi. Karnay juda uzun bo‘lganidan ikki yoki uch

bo‘lakka bo‘linadi. Uning tovushi juda kuchli bo‘lib, ijro paytida

³⁴ Ijrochilik amaliyotida (ayniqsa Farg‘ona vodiysida keng ommalashgan), chaqiriq nomi bilan yuritiladigan usul va usullar silsilasi keng qo‘llanilgan. Hozirda Farg‘ona-Toshkent ijro yo‘llarida 10 ga yaqin chaqiriq usullar saqlanib qolingan.

karnaychi karnay og‘zini har tomonga yo‘naltirgan holda (barchaga eshitilsin uchun) chaladi. Uning oberton tovushlari ko‘lami bir oktavadan oshmaydi. Obertonlari prima, sekunda, kvinta, seksta va septima bo‘lib, eng ko‘p foydalaniladigani kvinta, seksta va septima intervallaridir. Karnay harbiy yurishlarda, to‘y, sayil va bayramlarda surnay, nog‘ora va doyralar jamlangan ansambl tarkibiga kirgan. U mohir karnaychi tomonidan yakka holda nog‘ora va doyralar bilan ijro qilinadigan bo‘lsa faqat karnaygagina xos bo‘lgan tovush dinamikasini yaqqol namoyon qiladi. Ya’ni o‘ziga xos glissando, vibrato va tovush kuchining samarasi ushbu cholg‘uning ulug‘vorligini ko‘rsatadi.

Karnay hozirgi davrda ham keng qo‘llanilmoqda. To‘rt, olti karnaydan tashkil topgan nog‘ora, doyra, surnaylar tarkibidagi ansamblar to‘y, sayil, bayram va tomoshalarda xizmat qilmoqdalar.

Burg‘u — qadimda turkiy xalqlar Oltoy va Sibirda ham yashaganlar va bug‘u shoxlaridan karnay yasaganlar, uning nomi shundan qolgan.

IV BOB. URMA-ZARBLI CHOLG‘ULAR TASNIFI

Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrlaridan boshlab qadimgi odam qadamlarining bir maromda yerga tashlanishi, ov yoki boshqa jamoa tadbirlaridagi takroriy harakatlardan, qo‘llarini-qo‘llariga, badaniga urishdan paydo bo‘luvchi sadolar, turli mehnat qurollari, buyumlar yoki toshlarning bir-biriga tegishidan kelib chiqadigan ritmik tovushlar – urma cholg‘ularning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, ritm-usul ibtidoiy inson hayotining markaziy unsuri bo‘lib, u jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, uni borliq – tabiat va koinot bilan uyg‘unlashtiruvchi yagona vosita bo‘lgan.

Olimlarning taxminicha, ayollar kiyim tayyorlash uchun teriga ishlov berish jarayonida uni kunda ustiga yopishgan va qurigan teri haqiqiy nog‘orasimon tovush chiqarishi natijasida inson diqqatini jalb qilgan. Buning natijasida esa nog‘oralarning turli shakllari kelib chiqqan desa bo‘ladi.

Doyraning yaralishiga aloqador rivoyatda shunday hikoya qilinadi: Qadimda meshkobchilarning suv tashiydigan meshlarining tubiga suv solganda tekis turishi uchun gardish o‘rnatilgan bo‘lib, suvdan bo‘shagan chog‘da yoz kuni quyoshda terining qattiq qizishi natijasida u tarang tortilgan va barmoq bilan chalgan paytda doyrasimon tovush chiqargan. Bu toshkentlik doyrachilar orasida og‘izdan-og‘izga, ustozdan-shogirdga o‘tib kelayotgan rivoyatlardan biridir.

Eramizdan oldingi ikki minginchi yillikka oid Samaylitosh arxeologik qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalarda doyrasimon cholg‘ularda ijro etayotgan sozandalar tasvirlangan. Bu esa doyraning qadim zamonlardayoq ijrochilik amaliyotida mavjud bo‘lgan urma cholg‘u ekanligini tasdiqlaydi.

Bir rivoyatda aytilishicha, Iskandar Aflotunga: «Sen shunday bir cholg‘u yasaginki, uning sasi o‘n to‘rt chaqirim uzoqdan

eshitilsin, dushman yuragiga qoʻrquv va dahshat solsin», - debdi. Aflotun oʻylab-oʻylab oxiri katta qasqonning ikkala tomoniga mol terisini qoplabdi-da, uni tarang torttirib, kis nogʻora yasabdi. Nogʻorani bir tomonidan urilgan zarb, ikkinchi tomonidagi teriga taʼsir qilgan holda aks-sado berib, «Iskandar! Iskandar!» — degan dahshatli ovoz chiqar emish. Hozirgi davrdagi ikki tomoniga teri qoplangan barcha doʻl nogʻora, baraban, dovullarning yaratilishi shundan qolgan ekan.

Markaziy Osiyo hududlarida olib borilgan qazishmalar natijasida olingan maʼlumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doyraga asosan ayollar joʻr boʻlgan. Ularning doyra usullariga mos qoʻshiq aytishi va raqsga tushishi oʻsha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelmoqda. Doyra qayroq zang va safoyillar oymoma marosimlarida koshchinlar tomonidan keng qoʻllanilgan. Niso peshtoqlarida tasvirlanishicha, doyra diniy marosim raqslariga joʻr boʻluvchi cholgʻu sanalib, ayrim hollarda raqsga tushuvchilarning oʻzlari, baʼzan esa maxsus doyrachilar tomonidan ijro etilgan.

Zarbli cholgʻularda chalish barcha xalqlarda ham eng zavqli va zaruriy mashgʻulot boʻlib, bu haqda musulmon olamining buyuk faylasuf olimi Abu Homid Gʻazzoliy oʻzining «Kimiyo saodat» kitobining «Simoning (baʼzi) haromligʻi bayonida» faslida shunday deydi: — «Surud va rubob va chang va barbat va nay aroq birla boʻlsa haromdur. Chunki bu nimarsalar sharobxoʻrlar odatidur. Har nimarsaki, ularga xosdur —haromdur. Chunki bular sharobni yodigʻa keltirur va aning orzusini ziyoda qilur. Ammo tabla va daf chalmoq xarom emas. Agarchi salosil, yaʼni zanjirlari va qayrogʻi boʻlsa ham. Chunki daf va tabla hech asrda rad boʻlmabdurki, oʻzga nagʻmalarga muni qiyos qilib boʻlmas. Hazrati Rasul s.a.v. huzurlarida daf chalibdurlar va toʻy maʼrakada daf-doyra chalmoqgʻa farmon qilibdurlar. Tabla chalmoq gʻoziylar va hojilarning rasmidur».³⁵ Bundan koʻrinib turibdiki, musulmon olamida boshqa cholgʻularga qaraganda, zarbli cholgʻulardan daf—doyra va tabla chalish qoʻllab-quvvatlangan. Ayniqsa buni «Temur tuzuklari»dagi dalillardan ham bilishimiz mumkin.

Oʻzbek harbiy zodogonlarining yuksak maʼrifatli vakili boʻlgan Amir Temur, musiqa sanʼatining muhim estetik ahamiyatini maʼnaviy omil sifatida harbiy musiqa turlarini qoʻshinlarning jangovarlik ruhiyatini oliy darajada saqlab turuvchi kuch deb bilgan va uning rivojiga katta

³⁵ Abu Homid Gʻazzoliy. «Kimiyo saodat», T., «Adolat» 2005. 355—356-b.

e'tibor bergan. U tarixda birinchi bo'lib, askarlarni jangovar bayroqlar va musiqa cholg'u asboblari bilan taqdirlash odatini harbiy udumga kiritadi: «Amr qildimki, — deb yozadi «Tuzuklar»ida, — qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g'anim lashkarini engsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar — faxrli xitob, tug' va nog'ora berib, uni bahodir deb atasinlar».³⁶

Markaziy Osiyoda yaxshi tanish bo'lgan nog'ora turlari ko's, tabira, al-tabra, bir tomonli nog'ora, chindoul, doul-paz, katta nog'ora kabilardan foydalanilgan.

Zarbli cholg'ularning asl ma'nosiga qarab ko'radigan bo'lsak, zarb arabcha — urmoq yoki urish degan ma'nolarni bildiradi va mazkur cholg'ularda asosan zarb bilan urish, barmoq bilan chertish, silkitish va boshqa harakatlar orqali tovush hosil qilinadi.

Ularda tovush hosil qiluvchi unsur sifatida maxsus qoplama (membrana) yoki cholg'u asbobining tanasi (korpus) xizmat qilishi mumkin va bular ikki turga bo'linadi:

a) Membranafon (qoplama) cholg'ular, ularga maxsus teri yoki plastik qoplangan baraban, nog'ora, doyra, tom-tom, litavralarning turli xillari va boshqalar kiradi;

b) Avtofon (o'zi tovush beruvchi) cholg'ular bo'lib, ularning o'z tanasidan tovush hosil bo'ladi. Bular: turli tarelka (jaras)lar, qayroq, safoyil va boshqalar.

Ijro texnikasi jihatidan zarbli cholg'ularning cho'plar, qo'l barmoqlari bilan, bir-biriga tekkizib (urib) va silkitgan holda chalinadigan har-xil turlari mavjud. Bundan tashqari, ular past, o'rta va yuqori registrlilarga ajratiladi.



Doyra — aniq tovush balandligiga ega bo'lmagan va o'zbek xalq cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan zarbli cholg'ulardan biridir. Doyraning gardishi (buk, tut, o'rik, yong'oq, tok daraxtlari)yog'ochlaridan aylana shaklida tayyorlanadi va bir tomoniga yosh molning terisi qoplanadi.

Doyra ritmik va dinamik usul imkoniyatlariga juda boy cholg'u bo'lib, unda ikkala qo'lning barcha barmoqlari

³⁶ «Temur tuzuklari» T., «Sharq» NMAK Bosh taqiriyati 2005. 97-b.

va shapaloq bilan ijro qilinadi. Doyra ayrim qadimiy tasvirdagilarga nisbatan ba'zi o'zgarishlarga uchragan. Masalan, hozirgi doyra gardishida kichkina lappaklar o'rnatiladigan teshiklar yo'q. Uning o'rniga gardishning ichki tomonidan osiladigan ma'dan halqachalar, ya'ni «shing'iroq»lar mavjud.

Doyra o'zbek va tojiklarda «doyra», «chirmanda», «childirma», «dap», eron va misrliklarda «daff», ozarbayjonlarda «def», «doyre», «gaval», turkmanlarda «deprek», ayrim Sharq mamlakatlarida «dabu» nomlari bilan keng tarqalgan.

Doyrada usul tizimi qadimdan shakllangan bo'lib, ustozlar tomonidan «bum», «bak», «bakko» yoki «bakka», Xorazmda «gum», «taq», «taqqa» atamallari bilan yuritilgan. Bunda «bum» nisbatan past tovush bo'lib, to'rtta barmoqni birgalikda doyra o'rtasiga urish natijasida chiqariladi. «Bak» esa doyra gardishiga yaqin joyiga to'rtinchi barmoq bilan urib ijro etiladi. Qadimgi manbalarda yuqoridagidek «bum», «bak», «bakko», «bakka», yoki «Xorazm tanbur chizig'i»da «gum», «taq», «taqqa» atamallari bilan yuritilgan. XIX asrning o'rtalarida doyra usullari bir chiziqli («bum» chiziqning pastida, «bak» chiziqning ustida) notaga tushirila boshlagan.

Maqom cholg'u yo'llarining usullari

Tasnif


yoki

Tarje'

yoki

Gardun

Muxammas



Saqil



Samoi



Xafif



Chanbar



Doyra chap va o'ng qo'l shapaloq va barmoqlarining navbatma-navbat ishtirokida chalinadi. Xalq cholg'u asboblari orkestri va shu mutaxassislikda doyra partiyasi o'ng qo'l uchun ikkita va chap qo'l uchun ikkita nota chizig'iga yoziladi va ular akkolada bilan birlashtiriladi.

O'ng qo'l


Chap qo'l

Doyra ijrochiligida turli bezaklar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha ifodalanadi.

«Shing'iroq». Doyra zarblari ostida halqachalarning bir-biriga urilishi natijasida hosil bo'ladigan tovush «shing'iroq» deb ataladi va amaliyotda (x) belgisi bilan ifodalanadi. «Shing'iroq» tajribada, asosan, ikki ko'rinishda uchraydi: mustaqil va jo'rlikda. Ikkinchi ko'rinishda bu uslub har xil usullar bilan birgalikda qo'llanib, har bir urilgan naqrlarga bezak beradi. Misol:

«Shing'iroq»ning mustaqil qo'llanishi:

«Shing‘iroq»ning har xil usullar bilan birgalikda qo‘llanilishi:




«Shing‘iroq» ijro uslubidan mustaqil yoki usullar tarkibida mohirona foydalanish doyrachining zehni va mahoratiga bog‘liq.

«**Nuqta**» – doyraning o‘rtasiga yoki chetiga chertib chalishni bildiradi. U (.) belgisi bilan ifodalandi.

«**Pona**» – doyra gardishining eng chekkasiga jimjiloqni to‘rtinchi barmoq ustidan sirpantirishni anglatadi va (▼) belgisi bilan ifodalanadi.

«**Ilon izi**» – boshmaldoq uchi bilan doyra gardishining teriga tutashgan yeridan o‘ziga tomon sirg‘antirib, dirillatib chalishni bildiradi va ~~~~ ilon izi chiziqcha bilan belgilanadi.

«**Noxun**» – qadimdan keksa avlod doyrachilari ommaviy bayram va sayillarda karnay, surnay, nog‘ora bilan birgalikda chalganda doyra zarblarining yanada kuchli bo‘lishi uchun ikkala qo‘llarning to‘rtinchi barmoqlariga temir noxunchalarni kiyib chalishgan.




Katta va kichik nog‘oralar – turli kattalikdagi sapoldan yasalgan juft (ikkita) tuvaklardan iborat zarbli cholg‘ular. Ba’zida tuvakchalar metallardan ham ishlanadi. Tuvaklarga tarang qilib tortilgan teri-

larning tovushi aniq balandlikka ega bo‘lmasa ham qizdirilganda ko‘tariladi.

Ikkala nog‘oraning bir-biriga nisbatan sozi taxminan kvarta oralig‘ida bo‘ladi. Nog‘oraga yog‘och cho‘plar bilan urilib tovush

hosil qilinadi. Nog'ora o'zining keskin jarangli tembri bilan ajralib turadi. Nog'ora partiyalari bir chiziqda oddiy nota yozuvida ifodalanadi. Chiziq ostida bam (past) nog'ora tovushi, chiziq ustida zir (baland) nog'ora tovushi yoziladi.



Qayroq — to'rtta silliqlangan uzunchoq qayroq toshchalardan iborat. U zarbli cholg'ular tarkibiga kiradi va turli ritmik-usullarni chalish uchun qo'llaniladi. Xorazm qayroqlarining ikkitasi temirdan va

ikkitasi toshqayroqdan yasaladi.

Qayroqni ijrochi har qo'lida bir juftan (bosh barmog'iga bittasini va qolgan barmoqlariga boshqasini) ushlaydi va bir-biriga urishi natijasida quruq chaqqillagan tovush hosil bo'ladi.


Qayroq asosan raqs kuylarida asar koloritini boyitish maqsadida ishlatiladi.

Norim-norim



The image displays six systems of musical notation for piano, each consisting of a treble and bass staff. The notation includes various rhythmic patterns, accidentals (sharps and naturals), and articulation marks like staccato and accents. The systems are arranged vertically, showing a progression of musical ideas.

Qayroqda ijro qilinadigan shtrixlar: **tremolo, staccato.**



Safoyil – zarblilar ichida o‘ziga xos cholg‘u bo‘lib, shaqqildoqlar turiga kiradi. U yuqori tomoniga ikkita katta temir halqa o‘rnatilgan juft tayoqcha bo‘lib, katta temir halqalarning har biriga o‘n oltita temir halqachalar kiygizilgan.

Ushbu cholg‘uda tovush uch xil yo‘l bilan amalga oshiriladi: kichik halqachalarni titratish, ijrochining o‘ng yelkasiga safoyilni urish va shuningdek, safoyilni oldinga silkitib, katta halqalarni tayoqchaga urilishini ta‘minlash natijasida tovush hosil qilinadi.

Safoyil asosan raqs kuylarida xalq cholg‘ulari ansambliga jo‘rlik qiladi.



Qoshiq – tut yog‘ochidan 160–180 mm hajmida ikkitasi o‘yib yasaladi va teri tasmachalar bilan juft qilib boylanadi. Qoshiqlarni silkitish yoki qo‘lning kaftiga urish natijasida tovush hosil qilinadi. Qoshiqlar o‘zi yakka holda ritmik usularni chalishi yoki doyraga qo‘shilishi mumkin.

Ushbu cholg‘u dunyoning turli mamlakatlarida kastanet yoki ispancha kastanet kabi nomlar bilan raqqoslar raqs tushganda usulni yanada bo‘rttirib ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Hozirgi davrda qoshiq xalq cholg‘ulari ansamblida zamonaviy kuylarni chalishda ishlatiladi.

Sho'x

Qayroq

Doyra

Ko'proq qo'llaniladigan shtrixlar: **tremolo**, **staccato**.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Abu Homid G'azzoliy. «Kimiyo saodat» T., «Adolat». 2005.
- Абдуллаев Р. «Традиции музыкального инструментализма Средней Азии и их развитие в условиях современности» // «Музыкальное, театральное искусство и фольклор» Т., «Фан», 1992.
- Azizboyev S. «An'anaviy g'ijjak ijrochiligi» T., «Bilim», 2005.
- Akmaljonova M. «Dutor orkestri», T. 2004.
- Alisher Navoiy «Badoye' ul-vasot», Mukammal asarlar to'plami, beshinchi tom, T., 1990.
- «Атлас музыкальных инструментов народов СССР», М., 1963.
- В.Беляев «Музыкальные инструменты Узбекистана», М., 1933.
- Begmatov S. «Maqom surnay yo'llari» T. 2004.
- Т.С.Вызго «Музыкальные инструменты Средней Азии», Т., 1980.
- Ikomov I. «Doyra darsligi», T. 1997.
- Кароматов Ф. «Узбекская инструментальная музыка» Т., 1972.
- Qosimov R. «An'anaviy rubob ijrochiligi» T. 1999.
- Qosimov R. «Ud», T. 2002.
- Qosimov R. «An'anaviy tanbur ijrochiligi» T. 2002.
- Лутфуллаев А., Соломонова Т. «Узбекские народные инструменты» Т. 2005.
- Matyoqubov O. «Maqomot» T. 2004.
- Matyoqubov M. «Surnay», T. 2003.
- «Музыкальное, театральное искусство и фольклор», Т., 1992.
- «Музыкальная эстетика стран Востока», М. 1967.
- Nazarov A. «Musiq», // Buxoro – sharq durdonasi, Parij, 1997.
- Rajabiy Yu. «O'zbek xalq musiqasi», III tom, T. 1959.
- Rajabov I. «Maqomlar masalasiga doir», T. 1963.
- Rasultoyev J. «O'zbek dutor ijrochiligi», T. 1997.
- Samadov R. «An'anaviy doyra ijrochiligi», T. 2004.
- «Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али XVII века», проф. А.А.Семёнов. Т., 1946.
- «Temur tuzuklari», Т., «Sharq» NMAK Bosh tahririyati. 2005.

- Toshpo‘latova I. «An’anaviy dutor ijrochiligi», T. 2004.
- Firdavsiy A. «Shohnoma», T. 1984.
- Fitrat A. «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi», M. 1926; T. 1993.
- Holtojiyev A. «An’anaviy qonun ijrochiligi», T. 2005.
- «Shashmaqom saboqlari», H.Aminov maqolasi. O‘zDK Ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazi, T. 2005.
- Shodmonov N. «Musiqqa – bu uyg‘onish demak». «Tafakkur» jurnali, 1993. 3-son.
- «O‘zbek musiqqa tarixi», T. 1981.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I BOB.

O‘zbek xalq musiqiy cholg‘ulari

1-§. O‘zbekistonda musiqiy cholg‘ularning tarixiy taraqqiyoti	6
2-§. O‘zbek musiqiy cholg‘ulari va ularning turlari	13
3-§. O‘zbek milliy cholg‘ularning tarkibiy tasnifi	14

II BOB.

Musiqiy cholg‘ular tasnifi

1-§. Torli cholg‘ular va ularning tasnifi	17
2-§. Torli chertim cholg‘ulari	20
3-§. Torli plektorli cholg‘ular	23
4-§. Torli kamonli cholg‘ular	32
5-§. Torli urma cholg‘ular	34

III BOB.

Puflama-damli cholg‘ular tasnifi

1-§. O‘rta asrlar va Temuriylar davridagi damli cholg‘ular	43
2-§. Sharq xalqlari damli cholg‘ulari	46
3-§. Naysimon, tilsimon va munshtukli cholg‘ular va ularning tasnifi	46

IV BOB.

Urma-zarbli cholg‘ular tasnifi	57
--------------------------------------	----

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati	68
---	----

Soibjon BEGMATOV, Matrasul MATYOQUBOV

**O‘ZBEK AN‘ANAVIY
CHOLG‘ULARI**

*Madaniyat, san‘at kollejlari va
akademik litseylari uchun o‘quv qo‘llanma*

Muharrir *M.To‘ychiyev*
Texnik muharrir *T.Smirnova*
Musahhah *F.Komilova*
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Bosishga 12.12.2007-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$.
Tayms garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma toboq 4,5.
Nashr toboq'i 4,5. Adadi 500 nusxa. Buyurtma №
Bahosi shartnoma asosida.

«Yangi nashr» MChJ nashriyoti. Toshkent, Jarariq, 15/108-uy.

«Mehridaryo» MChJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, Qo'shko'prik ko'chasi, 22-uy.